

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM METODIKASI
KAFEDRASI**

**Qilicheva Qunduz Musulmon qizi
5111700 – “Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish”
ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun**

**“BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH DARSLARIDA SHE‘RIY
ASARLARNI O‘RGATISHDA INTERFAOL METODLARDAN
FOYDALANISH ”
MAVZUSIDA YOZGAN**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: o‘qituvchi. N.Mo‘minova

“Himoyaga tavsiya etildi”
Pedagogika fakulteti dekani
_____ dots. Sh.Nurullayeva
“ _____ ” _____ 2016 yil

Qarshi – 2016

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirish pedagogik muammo sifatida	
1.1. She‘riy asarlar orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirishning pedagogik zaruriyati	7
1.2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirishda she‘riy asarlarning ahamiyati.....	12
II BOB. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida she‘riy asarlar orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirishda interfaol metodlardan foydalanish yo‘llari	
2.1. Boshlang‘ich sinf O‘qish kitoblarida berilgan she‘riy asarlar tahlili....	19
2.2. She‘riy asarlarni o‘rgatishda interfaol metodlarning ahamiyati.....	31
2.3. Muammoga doir tajriba sinov ishlari va uning samaradorlik darajasi.....	42
Xulosa	47
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	48
Ilovalar.....	50

K I R I SH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash va kamolga yetkazish masalasi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib, mamlakatimiz prezidenti ushbu masalaga alohida e'tiborini qaratmoqda. Ushbu masalalar yuzasidan turli Qaror va farmonlar qabul qilinib, bir qator yo'llanmalar, ko'rsatmalar berilmoqdaki, ular haqiqatdan ham barkamol avlodni tarbiyalashda dasturamal bo'lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'lim sohasida olib boriladigan ishlarning dasturamali bo'lgan "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida shunday degan edi: "Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz" [2,87-bet] .

Bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi eng asosiy davr - bu boshlang'ich sinf davridir. Boshlang'ich ta'limning yosh avlod hayotidagi roli va ahamiyati kattadir. Zero, bola ko'ngli va ruhi pokiza. Shu sababi pokiza ko'ngil va toza ruhga ega bo'lgan kishigina ezgulikka, yaxshilikka, olijanoblikka mayl bo'ladi. Toza ruh hamda pokiza ko'ngil esa o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Ularni qaror toptirish, shakllantirish uchun har bir odam tozalash yo'lini o'tashi, o'zgalarning ko'nglidagi holatlarni ilg'aydigan darajaga ko'tarilishi lozim bo'ladi. Ayni shu jarayonda badiiy adabiyotning zimmasiga ulkan vazifa yuklatilgani anglashiladi. Faqat badiiy asargina odamga o'zga kishilarni tushunish, anglash imkonini beradi. Chunki badiiy asarlarda boshqa odamlarning ko'ngil manzaralari, ruhiyat chizgilari ta'sirli yo'sinda aks ettiriladi.

Badiiy adabiyot inson ruhiyatiga nozik tovlanish va hissiyotidagi chigal jarayonlarni ilg'ash hamda aks ettirishga xizmat qiladi. Chinakam badiiy asar insonni to'liqlantiradigan, hayajonga soladigan o'y-fikrlar, orzu-umidlar, sezgi va kechinmalarni ifodalaydi. Dunyoda yashayotgan odamlar bir-birlariga o'xshaganlaridek, ularning qalb kechinmalari ham takrorlanmasdir. O'zbek adabiyoti-inson ruhiy holatlari mahorat bilan aks ettirilgan durdonalarga boy. Ular hozirgi avlod ruhiyatida, qalbida ham hayajon uyg'ota olishi bilan ularning ma'naviy takomiliga hissa qo'shadi

Biz ana shunday o'zining maftunkorligi bilan bolalar, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining katta qiziqishiga sabab bo'lgan she'riy asarlar xususida fikr yuritmoqchimiz. To'g'ri, bu mavzu xususida boshlang'ich sinf o'qish darslarida bir qator mavzularni misol qilshimiz mumkin. Bu mavzu boshlang'ich sinf o'qish darslari misolida o'rganilmaganligi, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ushbu mavzuni olib borish jarayonida buning muhim ahamiyat kasb etishini e'tiborga olgan holda "Boshlang'ich sinf o'qish darslarida she'riy asarlarni o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish" mavzusini bitiruv malakaviy ishimizga asos qilib oldik. Mavzuni bugungi kun talablari asosida yoritish hozirgi kunimizning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Mavzuning o'rganilganligi darajasi. Boshlang'ich sinflarda ona tilining barcha sathlarini o'zaro ichki bog'lanishiga asoslanib o'quvchilarga yetkazish ularning nutqiy madaniyatini shakllantirish, nutqiy savodxonligini o'stirish orqali ma'naviy olami yuksak shaxslar qilib tarbiyalashimiz mumkin. O'quvchilar lug'atini boyitish, nutqini o'stirish borasida "O'qish" darsliklariga ishlangan metodik adabiyotlarda 1-sinfda O'qish darslari (T.G'afforova va boshqalar), 2-sinfda O'qish darslari (T.G'afforova va boshqalar), 3-sinfda O'qish darslari (M.Umarova va boshqalar), 4-sinfda O'qish darslari (X.G'ulomova va boshqalar), shuningdek, metodist olimlar K.Abdullayeva, R.Safarova, Sh.Nurullayevalarning tadqiqot ishlarida va Sh.Yuldosheva, X.G'ulomovalarning metodik qo'llanmalarida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida she'riy asarlarni o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanishning mohiyatini o'rganish hamda mavzu yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- she'riy asarlar xususida keng va atroflicha ma'lumot berish;
- an'anaviy dars shakli bilan noan'anaviy dars shakli o'rtasidagi farqni izohlash;
- o'qish darslarida she'riy asarlardan foydalanishni atroflicha tahlil qilish;
- she'riy asarlarni o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanishga doir tavsiyalar berish.

Bitiruv malakaviy ishning obyeksi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga she'riy asarlarni o'rgatishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti. Boshlang'ich ta'lim o'qish darslarida bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish, o'quvchilar nutqini o'stirish maqsadida ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning shakl va mazmuni.

Bitiruv malakaviy ishning farazi. Agar boshlang'ich sinf o'quvchilariga she'riy asarlarni o'rgatish va og'zaki nutqini o'stirish borasida o'quv faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha didaktik jihatdan to'g'ri hamda maqsadga muvofiq metodlar tanlansa ta'limning sifat va samaradorligi oshadi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" . Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" Qarori, Prezident I.A.Karimovning "2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi to'g'risida" Farmoni (2004-yil 21-may) va ta'lim-tarbiya sohasidagi boshqa me'yoriy va ko'rsatma hujjatlar hamda olimlarning pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlari, shuningdek, ilgor pedagoglarning zamonaviy maktablarda ta'limni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan asarlari mazkur bitiruv malakaviy ishning nazariy metodologik asosi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning metodlari. Izlanish va tahlil qilish, o‘qish fanidan o‘quv dasturlari va darsliklarini o‘rganib chiqish, o‘qitish jarayonlarini kuzatib borish, o‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkazish, o‘quvchilar o‘rtasida og‘zaki so‘rov ishlari olib borish.

Bitiruv malakaviy ishning yangiligi.

O‘qish darslarida she’riy asarlar orqali o‘quvchilar nutqini takomillashtirishda interfaol metodlardan foydalanishga doir tavsiyalar va o‘quvchilar so‘z boyligini boyitishning yangi usullari ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati.

She’riy asarlarni o‘rgatish jarayonida o‘quvchilar nutqini o‘stirish, ta’lim metodlaridan unumli va to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. Kirish 2 bob, 5 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I BOB. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI NUTQINI O‘STIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

1.1. She’riy asarlar orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirish pedagogik zaruriyat ekanligi

Mamlakatimizda “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning qabul qilinishi jamiyatimizda yangicha ong, tafakkurga ega bo‘lgan barkamol shaxsni tarbiyalashda asosiy poydevordir desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Chunki dasturning bosh g‘oyasi komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalashdan iboratdir.

O‘zbek xalqi tarixdan ta’lim-tarbiya sohasida o‘ziga xos dorilfunun yaratgan. Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi, insonni hayotga tayyorlashga yuksak talablar qo‘yadi. Har bir yosh avlod malaka ko‘nikma hosil qilishi, ma’lum bir kasb egasi bo‘lishi lozim.

O‘qish darslarining ahamiyati shundaki, ta’limning dastlabki kunlaridan boshlab o‘quvchilar tabiat, jamiyat va kishilar mehnati haqidagi bilimlarni o‘zlashtirib boradilar. Ana shu bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlariga erishish uchun quyidagilarga e’tibor berish taqozo etiladi. Darslik va ko‘rgazmalar asosida o‘rganilgan bilimlar bilan kuzatish va tajriba ma’lumotlarini bog‘lab borish, o‘rganiladigan manba xususiyatlariga qarab o‘qishni kuzatish, tajriba ishlari va hayotiy dalillar bilan mustahkamlash hamda dars jarayonida turli xil didaktik materiallardan foydalanishni maqsad qilib qo‘yiladi. Dastlab kuzatib tajribalar o‘tkazib keyin ko‘rganlari haqida o‘qisa , o‘quvchilar bilimi puxta bo‘ladi. Keyingi darslarda esa oldin o‘qib o‘qiganlarini amalda ko‘rishlari mumkin. Ayrim hollarda esa o‘qitib mazmunini tushintirilsa yetarli bo‘ladi. Darslarni rivojlantirishda ana shular hisobga olinadi.

O‘qishni hayot bilan bog‘lash orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlarini hayotga tadbiq etishga o‘rgatib borish bilan birga ularda mehnatga, vatanga bo‘lgan tushunchalarni shakllantirishimiz lozim.

Vatanimizning kelajagini buyuk davlat darajasiga ko'taradigan ijodkor shaxsni yaratishda boshlang'ich ta'lim mustahkam poydevor rolini o'ynaydi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim - tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o'qish darslarida amalga oshiriladi.

O'qish darslarida o'quvchilarning fikri va lug'atini boyitib borishga e'tibor beriladi. O'qishni o'rgatishga oid olib boriladigan barcha ishlar o'quvchilar nutqi va fikrini o'stirishga qaratilgan bo'lib, bunga turli xil ko'rgazmalardan mohirona foydalanish orqali erishiladi. O'qish darslarda asar matni ustida ishlashga alohida e'tibor beriladi. Bu jarayonda asar matni ustidagi ishlar uni tahlil qilish, aniqlash, o'quvchilar lug'atini boyitish va ayrim mantiqiy mashqlar bajarishga, taqqoslashga, o'xshatish va umumlashtirish malakalarni oshirishga, ko'rgazmalarni qismlarga bo'lib tahlil qilishga o'qituvchi yordam beradi.

Ma'lumki o'qish darslarining tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Ayniqsa, badiiy asar va xalq og'zaki ijodi namunalarining tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligi, shu bois maktablarda bilimlarni o'zlashtirish bilan tarbiyaviy ta'sir o'tkazish ishlari o'zaro bog'liq holda olib borilib, o'qituvchining mahorati bilan o'qish darslarida tasvirlash, izohlash orqali tushuntirib borishimiz mumkin.

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi"dagi manbalar o'quvchilarga tabiat, jamiyat, kishilar mehnati va boshqa muhim masalalar yuzasidan bilim berishga moslashtirib tanlangan bo'lishi lozim.

Ana shu darslik manbalari asosida tabiatdagi va jamiyatdagi voqea-hodisalarni tushuntirishning o'zi tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'quvchilarni uyushtirish, bilimlarni o'zlashtirishga qiziqtirish va mustaqil bilim olishga odatlantirish, kuzatuvchanlik qobiliyatlarini o'stirish ishlarining hammasi tarbiyaviy ishlardir. Ana shu ishlarni amalga oshirishda o'qish darslari muhim imkoniyatlarga ega.

Darslarda o'quvchilarni nutqini har tomonlama o'stirish vazifalarini bajara borib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, axloqiy sifatlarini shakllantirish masalalariga ham e'tibor beriladi. O'qish darsliklarida kishilarning mehnat faoliyatlari va jasoratlarini yorituvchi asarlar, rasmlar ularning qismlari muhim o'rin

olgan. Bu darslardagi vatanparvarlik tarbiyasi ta'limning dastlabki bosqichlarida-noq boshlanadi. Savod o'rgatish davrida vatan, kishilar mehnati va tabiatdagi voqea - hodisalar haqidagi she'r va hikoyalarni eshitish orqali o'quvchilar vatan va uning boyliklarini asrash, uni e'zozlash haqida dastlabki tushunchalarga ega bo'ladilar.

Har bir kishining tug'ilib o'sgan, voyaga yetgan va yashab mehnat qilayotgan joyi uning vatani ekanligi, keng ma'noda esa bepoyon diyorumiz, uning xalqlari, barcha boyliklari vatan tushunchasi tarkibiga kirish o'rgatiladi.

Bulardan tashqari "O'qish kitobi" dagi she'rlar, maqollar, topishmoqlar, masal va matallarni o'rganib borish orqali vatanimizning o'tmishi va hozirgi kuni haqidagi bilimlari ortib boradi.

O'qish darslari davomida o'qituvchi o'quvchilarni vatan haqida, uning boyliklari haqida ko'proq bilishga qiziqtirib borishi kerak. Vatanimizni sevish bilan birga uning boyliklarini ortirib borish, buning uchun esa har bir o'quvchi foydali mehnatga o'z ulushini qo'shishi, jamoat ishlariga ongli va qiziqishi bilan ishtirok etishi zarurligi o'rgatib o'tiladi.

O'qish darsliklarida quyidagi "Oftob va odob", "Yer nima der", "O'zbekiston askarlari", "Oy allasi", "Ota rozi-vatan rozi", "Bahor", "Tong", "Vaqtning qadri", "Navro'z", "Lola", "Bekinmachoq", "Yaxshi niyat", "Qushcha", "Ota-ona", "Maktab-oftob qo'shig'i", "Kitob mening do'stimsan", "Kitob", "Oltin quyosh", "Svetofor", "Ming yashang", "Yer", "Turnalar", "Vatan", "Istiqlol", "Xumo qushi", "Barcha bola do'st bo'lsa", "Bobo-ulashar davo", "Dadam ishdan kelsalar", "Sohibqiron Bobomiz", "Mirzo Ulug'bek", "Yur, tog'larga chiqaylik", "Tilagim", "Mevalar", "Bog'da", "Mehnat", "O'quvchiga estalik", "Kitobimni qancha sevsam oz bo'lur", "Bilim ol, hunar tanla", "Orzular", "Inoqlikda gap katta", "Vaqt qadri", "Muallimim", "Maktabdan kelganimda", "Turnalar", "Kitob", "Kurashchi bola", "Qorboboning sarhisobi", "Tabiat", "Qish", "Baxor keldi", "Bahor", "Bolalar o'ynasin deb", "Buvijonimga", "Ona aziz", "Oymoma", "Yomg'ir", "Shudring", "Yulduzlar", "Topishmoq", 3- sinf o'qish darsligida "Mustaqillik ahillikdan", "Kim sindirdi bu niholni", "Kitobim qo'limda", "Sizga",

“Vatan haqida she’r”, “Yoz”, “O’ktam avlod”, “So’nggi axborot”, “Ona tilim”, “Yomg’ir”, “O’zbekim”, “Yangi yil archasi”, “Kuz kelsa”, “Non haqida”, “Hunarni sev”, “Kuz”, “Men dadamga yordamchi”, “Tushimga kiradi Qodiriy bobom”, “Birinch qor”, “Bosh kitob”, “O’zbekiston posbonlari”, “Ayamajiz”, “Dunyoni saqlar bolalar”, “Tinchlik”, “Istiqlolga sharaf-shon”, “Biz istiqdol tengdoshlarimiz”, “Ikki qiz”, “Jigarlarga tilaklarim”, “Bahor yaqin”, “Bayramingiz muborak”, “Daraxtlarni oqlaganda”, “Qaldirg’och”, “Ko’klam yomg’iri”, “Lola”, “Quvnoq o’tsin ta’tilimiz”, “Ona tabiat”, “Otamiz”, “Onamiz”, “Qalamning o’kinchi”, “Ota ona duosi”, “Bola”, “Kamtarlik haqida”, “Yurtim, ado bo’lmas armonlaring bor”, “Tinchlikni kuylaymiz”, “Dorboz bola”, “Iqboli buyuksan”, “O’zbekiston”, “Dehqon bobo va un ikki bolakay qissasi”, “Sharq hikoyasi”, “Istiqbol taronasi”, “Serquyosh o’lka”, “Suv bilan suhbat”, “Toshkentnoma”, “Mardlik va aql yorug’ligi”, “Nurxon bilan Burxon”, “Xalq”, “Kuz”, “Tinchlik qushi haqida men o’qigan she’r”, “Yoz”, “Har kim ekkandin o’rar”, “Ustozingga raxmat”, “Sodda qishloqi va unning eshagi qissasi”, “Buni toping, kizlarim”, “Uylashni o’rganamiz”, “Ola buzoq”, “Qish to’zgitar momiq par”, “Bahor”, “Qish”, “Navoiy bobomlar”, “Zuluk ila ilon”, “Qush tili”, “Tut” kabi tirli xil mavzudagi she’riy asarlar berilgan [7,8,9,10].

Darslarda turli millat bolalariga va ularning do’stligi haqida yozilgan she’riy asarlarni o’qish jarayonida ahillik g’oyalari singdirib borish lozimligi o’qtiriladi. Tabiatdagi turli o’zgarishlar, fazoni o’rganishga oid ishlar haqidagi hikoyalarni o’qish jarayonida o’quvchilarni dunyoqarashi shakllanib boribgina qolmay, tabiatning voqea hodisalarini tushuntirib o’tishimiz mumkin. Bu orqali yoshlarni har tomonlama yetuk kishilar qilib voyaga yetkazishda nafosat tarbiyasi muhim o’rin tutadi. Nafosat tarbiyasi faqat o’qish darsida badiiy asarlarni o’qish orqali amalga oshirilishi mumkin.

“O’qish kitobi” darsliklari uchun manba tanlashda uch tomonlama mulohaza qilingan: asar mazmuni, uning yozilish tili va hajmi hisobga olingan. Buning natijasida o’quvchilar fikri ham asta-sekin kengayib boradi. O’rganiladigan asar tili, unda yangi so’z va iboralarning bo’lishi o’quvchilar qobilyatini boyitib

borishga yordam beradi. Darslik manbalari tartibiga ko'ra birinchi sinfda o'rganilganlar undan keyingi sinflarda kengaytirib boriladi va takrorlash darslari o'tkazilib turiladi. Shundagina o'quvchilarning faolliklari, o'z ustida ishlashga o'rganishlarini mustahkamlashimiz mumkin.

Umuman, o'quvchilarning tasavvur tushunchalarini kengaytirish va bilimlarini oshirishda o'qish va yozuv darslarining ahamiyati kattadir. Chunki o'quvchilar o'qish va fikrlashni, mulohaza qilishni bilmay turib biror sohadagi bilimlarni o'zlashtira olmaydilar. O'quvchilarning har tomonlama bilimlari ortib borishida o'qish darslarining ahamiyati beqiyosdir.

O'quvchilarni to'g'ri tushunib va ifodali o'qishga o'rgatish, o'qish darslarida tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish maktabning barcha bosqichlarida ham muhim vazifalardan biri hisoblangan.

O'qituvchi o'quvchilarga o'qishni o'rgatish bilan bir vaqtda turli narsalar va ko'rgazmali qurollar yordamida ularning tushunchalari orttiriladi. O'qigan badiiy asardagi obrazlar namuna sifatida yozuv daftariga yozdirib borish o'quvchilarning nutqiy faoliyatlarini hamda ularda ta'lim-tarbiyaviy tushunchalarini rivojlantiradi. Ana shularni hisobga olib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qishni o'rgatish jarayonida ta'lim-tarbiya birligi masalalari ishlab chiqilgan.

O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rganida ifodali o'qiydigan o'quvchilarga kitobdagi topshiriqlardan tashqari qo'shimcha topshiriqlar berishni ham mo'ljallab qo'ysa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday ekan, o'quvchilarning tushunishi uchun to'g'ri o'qishni bilishi va to'g'ri o'qishi uchun o'qiyotgan so'zlari ma'nosini tushunishi zarur. O'quvchilar so'zlarni butunicha to'g'ri va ravon o'qish malakalariga ega bo'lganlaridan keyingina uning mazmuni haqida fikr yuritish o'rinlidir. Bo'g'inlab, tutilib, qiyinchilik bilan o'qilgan so'z va gaplar ma'nosi tushunarli bo'lmaydi. Shuning uchun ham ta'limning dastlabki bosqichlaridan boshlab o'quvchilarning to'g'ri o'qishlariga e'tibor beriladi va turli xil rasmlar asosida og'zaki gaplar tuzdirib borilishi maqsadga muvofiqdir. O'qish darslarida o'qigan asarlar mazmunini tushunish murakkab jarayon hisoblanadi. O'quvchilar ko'rganlarini, eshitganlarini osonlik bilan tushunishlari mumkin.

Respublikamiz o'quvchi yoshlarini milliy o'zlikni anglash, o'tmishni tushunish, o'zbek xalqining tarixiy qadriyatini hurmat qilish ruhida tarbiyalash, ta'lim tizimining asosiy g'oyalaridan biri hisoblanadi, uni amalga oshirishda milliylik, tashabbuskorlik, zamonaviylik, tarixiylik kabi tamoyillarga rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi.

1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda she'riy asarlarning ahamiyati

Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi umumta'lim maktablari 1-4 sinf o'qish fanlarining o'qitish mazmuni, maqsadi, vazifalari, tamoyillari va boshqa mezonlarini belgilaydi. Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" asosida ishlab chiqilgan. O'rta maktabda o'qitiladigan o'qish darslarining maqsadi o'quvchilarning aqliy va jismoniy mehnat turlari, kasblar bilan dastlabki tanishtirish, turli xil darslikda berilgan mavzularni tushunib o'qishlariga e'tibor berishga o'rgatib boriladi.

O'qish darslarining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarning o'qish malakalarini takomillashtirish va ularga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, ularning shaxsini tarkib toptirishdan iboratdir. Bu vazifani bajarishda darslarda o'rganiladigan badiiy asarlar, ularning g'oyasi undagi obrazlar muhim ahamiyatga ega. Chunki badiiy asar, undagi obrazlar orqali kishilarning hayotiy tajribalari, tabiat jamiyatdagi voqea – hodisalar nafis so'zlar bilan san'atkorona yoritilgan bo'ladi. Ana shu hayotiy voqealar tasvirini o'quvchilarga to'laqonli yetkazish, asardagi obrazlar va voqealikka yozuvchi qarashlarini tushuntirish orqali tarbiyaviy maqsadlar amalga oshadi.

O'quvchi o'zini asarda tasvirlangan hayot, voqea-hodisalar ichida his qilishi, ana shu asar g'oyasini tushunganligidan dalolat beradi. Bu jarayonda o'qituvchi asar mazmunini aniq etkazib berishi uchun turli xil didaktik materiallardan foydalanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shundagina asar mazmunini aniq

tushunib yetgan o'quvchi undagi voqea-hodisalar guvohiga aylanadi. Natijada tinglovchiga o'qituvchi xuddi ko'rganday, ana shu voqealar ichida bo'lganday yetkazishga harakat qiladi.

She'riy asarlarni ham savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo, asar mazmuni haqida o'quvchilarga ko'p savol berish tavsiya etilmaydi. O'quvchilar asarning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o'zi kifoya. Shuni ham aytish kerakki, bolalar hayoti, ularning o'ziga xos fikrlari, his-tuyg'ulari, qiziqishlarini ifodalovchi, shuningdek, zamonamiz qahramonlari, o'zbek xalqi, Vatan himoyasi, xalqimizning qahramonona ishlari haqidagi she'riy asarlarni to'liqroq tahlil qilish talab etiladi. Bunday she'riy asarlarni o'qishga maxsus tayyorlaniladi. She'rlar mazmuniga asos bo'lgan tarixiy voqea haqida qisqacha so'zlab beriladi yoki suhbat o'tkaziladi. Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan ko'pgina she'riy asarlarni tahlil qilib, ifodali o'qish mashq qilingach, yod aytib berish vazifasi topshiriladi.

Boshlang'ich sinf o'qish kitobida [10, 31-b] "Mardlik va aql yorug'ligi", „Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi", „Sharq hikoyasi", „Har kim ekanin o'rar", kabi epik she'rlar berilgan. Bu asarlar ustida ishlashda ham yuqorida ta'kidlab o'tilgan ish turlaridan foydalanish kerak.

She'riy asarlarni izohli o'qish darsining tuzilishi quyidagicha borishi mumkin:

1) she'r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o'qib berish ;

2) she'riy asarda tasvirlangan payt, hodisa haqida suhbat;

3) she'riy asarni ifodali o'qishni mashq qilish;

4) she'riy asarni yod aytib berishga tayyorlanish;

5) epik (voqeiy) she'rlar ustida ishlash;

6) she'riy asardagi notanish so'zlar ustida ishlash va hokazo.

O'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish, ularning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish orqali o'qilayotgan she'riy asarlarning mazmunini o'zlashtirish imkoni yaratiladi.

Darslikda berilgan she'riy asardagi mavzular, matnlar ana shu jihatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Masalan, "Mustaqillik ahillikdan", "Kim sindirdi bu niholni?", "Kitobim qo'limda", "Vatan haqida she'r", "Yoz", "So'nggi axborot", "Ona tilim", "Yomg'ir", "O'zbekim", "Yangi yil archasi", "Non haqida", „Ruxsat so'rash odobi", „Do'stlikning xosiyati", „Kuy sehri", „Do'st tutmoq haqida"[8, 32-b] kabi matnlarni o'qish orqali bolalarda bir-birlariga mehr, muhabbat kabi yaxshi xislatlar paydo bo'ladi.

O'quv dasturining o'qish bo'limida bolalarning eshitish o'quvlarini tarbiyalash, tez, sekin, qattiq, har xil ohangdagi gaplarni eshitib, idrok etish talab qilinadi. Talaffuzning sofligini ta'minlash dasturdan keng o'rin olgan. O'quvchilar nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish ko'zda tutilgan.

Bolalarning o'z fikr taassurotlarini ifodalashlari uchun savol-javobli nutqni egallashlariga ko'proq o'rin beriladi. His tuyg'uli nutq, fikrni ta'sirli ifoda etish, o'qish paytidagi nutq, ertak aytib berishdagi ohang va nutq, hazil mutoyibadagi nutq uyg'unlashishi, o'quvchilarga zavq-shavq bag'ishlashi lozim.

O'quvchini yakka holda gapirishga o'rgatishga qaratilgan talablar rasmlar vositasida so'zlashuv, ko'rgan, eshitganlarini tartib bilan ifoda etishdan iborat. Nutq o'stirish bilan bolalarning tasavvur va tafakkur qilish faoliyatlari bog'liq holda uzviy rivojlantiriladi. Shuningdek, bolalarni o'qituvchi rahbarligida tayanch so'zlar yordamida o'z fikrlarini bayon qilish, shunday usullar bilan ular lug'a-tining ortib borishiga erishiladi. Bolalarni faollikka o'rgatish uchun ma'nodosh so'zlarni topish o'yinlarini tashkil etish, bunday so'zlarni nutqda o'rinli qo'llashni, gap tuzishda esa so'zlar orasidagi bog'lanishga mos turli o'xshatishlar topish kabi ishlar doimiy ravishda o'tkaziladi. She'riy asarga yoki tasviriy vositalarga qarab gap tuzishni, gapda so'zlarning tartibiga, ularning bir-biriga bog'lanishiga, so'zlar o'rnini almashtirib, gapni qayta tuzib o'qishda izchillikka rioya qilish mashqlarini o'tkazishga e'tibor beriladi.

She'riy asarlar, hikoyalar, ertaklar matnini so'zlab berishda qahramonlar ovozigacha taqlid qila bilish, rasm va narsalarni taqqoslab tasvirlash, sayr, tomosha,

o'yin, mehnat haqida hikoya qilish, misollar keltirish, matnda tasvirlangan voqealar haqida xulosalar chiqarish, badiiy matn ustida ishlashga o'rgatish, matnni qismlarga bo'lib, ular mazmuniga mos sarlavhalar topish, ijodiy rasmlar ishlash kabi jarayonlarda bolalar tafakkur qilishga o'rganadilar.

Bolalarda nutq madaniyatini tarbiyalash uchun og'zaki nutq namunalaridan foydalanish, ularga taqlid qilish, ko'proq yod olishga e'tibor berish mashqlarini o'tkazish tavsiya etiladi. Bolalarga hamisha o'z nutqiga e'tiborli bo'lish, o'rtoqlarining nutqiga odilona baho berish, o'rgatiladi. Jumladan, yoqimli she'rlar o'qib berish, Alisher Navoiy she'rlarining nafis ekanligini bolalarga uqtirish uchun o'qituvchining o'zi tarixiy manbalarni chuqur o'rganishi, ulardagi boy merosni bilishi, kerakli o'rinlarda ulardan ijodiy ravishda foydalanishi lozim. Navoiy, Rumi, Sa'diy, Fuzuliy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Mahtumquli, Avloniy kabilarning bolalarga mos asarlaridan namunalar o'qib berish orqali boy madaniy merosimiz bilan bolalarni tanishtirish, milliy madaniyatimiz durdonalaridan xabardor qilish maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi nutqi bolalar uchun namuna hisoblanadi. Endilikda nutq odobi, nutqiy mahorat, notiqlik, notiqlik mahorati maktablar hayotidan keng o'rin olmog'i lozim. Ayniqsa, o'qituvchining nutqida ifodalilik yetarli bo'lsa, albatta bunday nutq bolalar nutqiga ham ta'sir etadi.

O'qituvchi o'z nutqining bolalarga qanday ta'sir etayotganini kuzatishi, tushunarli va qiziqarli bo'lganini hisobga olishi kerak. Agar bolalar darsda e'tiborsiz o'tirsalar, demak, o'qituvchi nutqining ta'sir kuchi sust. U o'z nutqini hamma bolalarga, goho ayrim bolalarning xulq-atvoriga qaratgan holda boshqarishi, qiziqarli misollar aytishi, o'quvchilar e'tiborini tortib, o'rinli imo-ishoralarni ishlatishi, qo'lni besabab harakatlantirmasligi, bir nuqtaga qarab emas, balki sinf jamoasining diqqatini tortgan holda gapirishi kerak.

O'qituvchi o'z nutqida murakkab, uzun jumlar yoki notanish, qiyin iboralarni muntazam qo'llayvermasligi lozim. O'qituvchining samimiy, mazmunli nutqi bolalarni o'ziga yaqinlashtiradi, darsga qiziqishlarini oshiradi.

O'qituvchining mahorati shundaki, u o'zining yoqimli nutqi bilan bir butun jamoaga ta'lim-tarbiya beribgina qolmay, balki ularni yuksaklikka intilishga chorlaydi. „O'qish kitobi"ga kiritilgan [9,10- b] „Vatan", „O'lka", „El-yurt uchun kurashgan insonlar", „Orzular", „Aziz insonlar xotirasi", „Baxtli bo'lish osonmas" matnlari o'quvchilarda Vatanga, insonlarga, tabiatga cheksiz mehr-muhabbat uyg'otadi.

Tajribalardan ma'lumki, o'qituvchining nutqi o'quvchilarni o'ziga ergashtirib, ularda ham yoqimli nutq madaniyatini tarbiyalaydi. O'qituvchi nutqidagi ohang ta'lim-tarbiyada muhim ahamiyat kasb etib, unda misiqiylik, yoqimlilik, pauza (to'xtam), temp (sur'at) kabi komponentlar borki, bularning har biri bola faoliyatida o'ziga xos rol o'ynaydi.

O'qish darslarida ko'pincha obrazli nutq asosidagi suhbat, savol-javob kabi usullardan foydalaniladi. Tilimizning lug'at boyligi tarkibida yorqin, ifodali nutqni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan hamma vositalar mavjud. So'zlarni ko'chma ma'noda ishlatish imkoniyati va buning natijasida so'zlarning ko'p ma'no kasb etishi lug'atimizning yanada boyishiga imkon beradi.

Bola nutqining taraqqiyotini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajribalar dastlab so'zlarning vujudga kelishi va shu asosda dastlabki umumiy tushun-chalarning paydo bo'lib, shakllanishini ko'rsatadi. O'qish darslarida xilma-xil usullarni qo'llash bola uchun qiziqarlidir. Jumladan, ovozni saqlay bilish. O'qituvchi bu ishga jiddiy e'tibor berishi, bunda o'zi namuma bo'lishi zarur. Ovoz pardalarini asrash o'quvchi sog'lig'i uchun nihoyatda zarur. Qo'shiq, she'r, tez aytish kabi o'yin-mashg'ulotlarda nutq a'zolarining gigiyenik qoidalariga amal qilishni odat tusiga kiritish lozim.

Bolalarning nutqini o'stirishda ikki asosiy talabni hisobga olish lozim: og'zaki nutqdagi izchillik, fikrlash, ifodalilik, pauza (to'xtam); temp (sur'at). Yozma nutqda og'zaki nutq asosida hosil bo'lgan bilim, malaka va tushunchalarning uzviyligini ta'minlash.

Og'zaki nutqda so'zlovchining o'ziga xos talaffuzi bo'lib, bunda so'zlayotgan paytdagi his-hayajon to'la saqlanadi.

Masalan, „Kuyni sevgan gullar haqida” ertakni o’qishda o’qituvchi bolalar diqqatini qizchani Lola ochilishini kutgan daqiqalariga qaratib, shunday deydi:

— Kechir meni, lolaxon, seni zo’rlab opmoqchi bo’ldim.

Keyin qiz yoqimli kuy chala boshladi.

— Endi hikoyani o’zingiz o’qib chiqing, Lola ochildimi, yo’qmi, bilib olasiz!
— deb ularni hikoyani o’qishga jalb qiladi. „Kuychi terak” ertagini so’zlab berayotganda o’qituvchining nutqi shunchalik ta’sirchan kuchga ega bo’lishi kerakki, kampirning mehr bilan asrab, avaylab o’stirgan teragi xuddi uning farzandidek ardoqli ekanini bolalar hus etsin. Buning uchun u hazin ovozda:

— Teragimni olib ketmanglar, u mening ovunchog’im, farzandimdek bo’lib qolgan edi, — degan so’zlarni o’qiydi.

Bolalar navkarlar tomonidan sodir qilingan voqeani eshitib, kampirning qayg’usini his etsinlar, hamdard bo’lsinlar, hikoyani o’qib, adolat uchun kurashga, kampirga yordam berishga hamma birday shaylanishgacha borib yetsin.

O’qituvchi nutqidan ruhiy ozuqa olgan bolalar matn mazmunini og’zaki so’zlash jarayonida u ishlatgan so’zlarni qo’llashga harakat qiladilar.

Bolalar o’z nutqlarini sodda shaklda emas, balki o’quv dasturi va ta’lim davlat standartini talabiga ko’ra jozibali qilib tuzsinlar. Masalan, „Kuz keldi” gapini „Oltin kuz keldi”, „Qish fasli boshlandi” gapini „Go’zal qish fasli yetib keldi”, „Qor yog’di” gapini „Oppoq, momiq qor yog’di” deb tuzsalar, o’z gaplaridan o’zlari zavq olib, ijodiy fikrlashga o’rganadilar.

O’qituvchi darsliklarda berilgan barcha she’riy asarlarni o’qish davomida o’quvchilarga notanish bo’lgan so’z va iboralarni izohlab barcha sinflardagi o’qish darslari davomida ifodali o’qish mashqlariga e’tibor berishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Darslardagi o’qiganlari yuzasidan o’tkaziladigan suhbatlar, asar matnini qismlarga bo’lish va har bir qismiga sarlavha qo’yish, hikoya qismlari mazmuniga moslab rasmlar tanlash, qismlarga bo’lib o’qish, tanlab o’qish, o’qiganini qayta hikoyalash singari ishlar ham ifodali o’qishga tayyorlaydi. Eng muhimi o’qituvchi darsni rejalashtirayotganda barcha ishlarni ifodali o’qish talablariga bo’ysindirish kerak. Yod o’qish esa onglilik prinsipiga asoslanadi.

Uning ahamiyati juda katta. O'quvchi boshlang'ich sinflardan boshlab she'riy asarlardan qanchalik ko'p yod bilsa, uning eshituv qobiliyati, nutq madaniyati va xotirasi shunchalik tez rivojlanib boradi, ifodali o'qish mahorati takomillashadi. Shuningdek, yod o'qish asarni tutilmay, ravon, tez va ta'sirli o'qish malakalarini o'stiradi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim o'qish va nutq o'stirish rejasida o'quvchilarning yod olishlariga alohida e'tibor berilgan. Har bir sinfda 5,10 ta she'rlarni ko'proq yodlash tavsiya etilgan.

She'r o'qishda ham, proza asarlarini o'qishda ham mantiqiy urg'uga e'tibor berish kerak. Lekin she'rni o'qishda pauzaning uzun-qisqaligiga ham e'tibor beriladi. She'rning har bir satridagi pauza mantiqiy pauza bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin.

Shunday qilib, to'g'ri uyushtirilgan va doimiy o'tkaziladigan ifodali o'qish mashqlari o'quvchilarning o'qish malakalarini takomillashtirish bilan bir vaqtda ularning tarbiyaviy ozuqa olishlariga ham yordam beradi. Shu bois har bir pedagog yoki muallim dars o'tish jarayonida turli xil didaktik materiallar orqali darslarni tashkil etishi, fanlarning uzviyligini izohlashi maqsadga muvofiqdir.

II BOB. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida she'riy asarlar orqali o'quvchilar nutqini o'stirishda interfaol metodlardan foydalanish yo'llari

2.1. Boshlang'ich sinf O'qish kitoblarida berilgan she'riy asarlar tahlili

O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standarti talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biliv ko'nikma va malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochadi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini qolaversa, olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beradi.

Shu maqsadda "O'qish kitobi" darsliklariga turli xildagi she'riy asarlar, ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy, ta'limiy, ilmiy- ommabop asarlar kiritiladi.

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqloq mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqloq, Vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqloq, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir. Masalan 1-sinf o'qish kitobi [7, 40-b]ga xilma -xil janrlardagi taniqli shoirlarni she'riy asarlari kiritilgan: Bular, Po'lat Mo'minning "Bu juda soz, juda soz", "Mehribonim oyijonim", "Oftob va odob", "Yer nima der?", Odil Abduraxmonning "O'zbekiston askarlari", "Oy allasi", Eson Raximovning "Ota rozi-vatan rozi",

Tursunboy Adashboyevning “Bahor”, Olim Mahkamning “Tong”, Obid Rasulning “Vaqtning qadri”, Rauf Tolibning “Navro’z”, Hamid Olimjonning “Lola”, Anvar Obidjonning “Bekinmachoq”, “Yaxshi niyat”, Abdulla Oripovning “Qushcha”, Tolib Yo’ldoshning “Ota-ona”, Quddus Muhammadiyning “Maktab-oftob qo’shigi”, Zafar Diyorning “Kitob mening do’stimsan”, Obid Rasulning “Kitob”, Miraziz A’zamning “Oltin quyosh”, Safo Ochilning “Svetofor”, Yo’ldosh Sulaymonning “Ming yashang”, Qambar Otayevning “Yer”, Ilyos Muslimning “Turnalar” kabi she’rlari berilgan.

2-sinf o’qish darsligi [8, 20-b]da Hamza Imonberdiyevning “O’zbekistonim”, Narimon Orifjonovning “Vatan”, Jumaniyoz Jabborovning “Istiqlol”, Po’lat Mo’minning “Xumo qushi”, “Barcha bola do’st bo’lsa”, Ibn Sino “Bobo-ulashar da’vo”, “Dadam ishdan kelsalar”, Muxtor Xudoyqulovning “Sohibqiron Bobomiz”, “Mirzo Ulug’bek”, Usmon Nosirning “Yur, tog’larga chiqaylik”, Yo’ldosh Sulaymonning “Tilagim”, Erkin Vohidovning “Mevalar”, Qambar Otaning “Bog’da”, G’ani Abdullayevning “Mehnat”, Quddus Muhammadiyning “O’quvchiga estalik”, “Kitobimni qancha sevsam oz bo’lur”, “Bilim ol, hunar tanla”, Rauf Tolibning “Orzular”, Ibroxim Donishning “Inoqlikda gap katta”, Tolib Yo’ldoshning “Vaqt qadri”, Yusuf Shomansurning “Muallimim”, Ilyos Muslimning “Maktabdan kelganimda”, “Turnalar”, Quddus Muhammadiyning “Kitob”, Habib Raxmatning “Kurashchi bola”, Shodi Sattorning “Qorboboning sarhisobi”, “Tabiat”, Shukur Sa’dullaning “Qish”, Otayorning “Bahor keldi”, Uyg’unning “Bahor”, Mirshakarining “Bolalar o’ynasin deb”, Hilola Isoqovaning “Buvijonimga”, Abdulqosim Firdavsiyning “Ona aziz”, Safo Ochilning “Oymoma”, “Yomg’ir”, Muhammadalining “Shudring”, Mashrab Boboyevning “Yulduzlar”, Ibrohim Donishning “Topishmoq” kabi she’rlar berilgan.

3-sinf o’qish darsligi [9,11-b] da Po’lat Mo’minning “Mustaqillik ahillikdan”, “Ibn Sino bobo ulashar davo”, “Kim sindirdi bu niholni?”, “Kitobim qo’limda”, Abdulla Oripovning “Sizga”, Abdulla Avloniyning “Vatan haqida she’r”, “Yoz”, Anvar Obidjonning “O’ktam avlod”, “So’nggi axborot”, Tursunboy Adashboyevning “Ona tilim”, “Yomg’ir”, Erkin Vohidovning “O’zbekim”, “Yangi yil archasi”,

Tolib Yo'ldoshning “Kuz kelsa”, “Non haqida”, “Hunarni sev”, Yusuf Shomansurning “Kuz”, Quddus Muhammadiyning “Men dadamga yordamchi”, Muhammad Yusufning “Tushimga kiradi Qodiriy bobom”, Shuxratning “Birinchi qor”, Safar Bannoyevning “Bosh kitob”, “O'zbekiston posbonlari”, Quddrat Hikmatning “Ayamajiz”, Kavsar Turdiyevning “Dunyoni saqlar bolalar”, Muhammadjon Dadaboyevning “Tinchlik”, Abdulxay Nosirovning “Istiqlolga sharafshon”, Rauf Tolibning “Biz-istiqdol tengdoshlarimiz”, Xabib Saydullaning “Ikki qiz”, Maqsud SHayxzodaning “Jigarlarga tilaklarim”, Zafar Diyorning “Bahor yaqin”, Yu. Shomansurovning “Bayramingiz muborak”, “Daraxtlarni oqlaganda”, Sul-ton Jabborning “Qaldirg'och”, Cho'lponning “Ko'klam yomg'iri”, Ilyos Muslimning “Lola”, “Quvnoq o'tsin ta'tilimiz”, T.Xolmatovning “Ona tabiat”, Hamza Hakimzodaning “Otamiz”, “Onamiz”, SHuxratning “Qalamning o'kinchi”, Safo Ochilning “Ota ona duosi”, Berdaqning “Bola”, Erkin Vohidovning “Kamtarlik haqida”, Muhammad Yusufning “Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor”, Barot Isroilning “Tinchlikni kuylaymiz”, Tohir Qahhorning “Dorboz bola” kabi she'riy asarlar berilgan.

4-sinf o'qish darsligi [10, 8 -b] dan Abdulla Oripovning “Iqboli buyuksan”, “O'zbekiston”, “Dehqon bobo va o'n ikki bolakay qissasi”, “Sharq hikoyasi”, Safo Ochilning “Istiqlol taronasi”, Zafar Diyorning “Serquyosh o'lka”, “Suv bilan suhbat”, Maqsud Shayxzodaning “Toshkentnoma”, Miraziz A'zamning “Mardlik va aql yorug'ligi”, “Nurxon bilan Burxon”, Cho'lponning “Xalq”, Shukur Sa'dullaning “Kuz”, “Tinchlik qushi haqida men o'qigan she'r”, “Yoz”, Munavvar Qori Abdurashidxonovning “Har kim ekkani o'rar”, Quddus Muhammadiyning “Ustozingga rahmat”, Abduraxmon Jomiyning “Sodda qishloqi va unning eshagi qissasi”, G'afur G'ulomning “Buni toping, qizlarim”, “O'ylashni o'rganamiz”, “Ola buzoq”, Quddrat Hikmatning “Qish to'zgitar momiq par”, “Bahor”, Tursunboy Adashboyevning “Qish”, “Navoiy bobomlar”, Abdulla Avloniyning “Zuluk ila ilon”, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “To'g'ri so'z bola”, Sul-ton Jo'raning “Kimning xati chiroyli”, Mirtemirning “Qush tili”, “Tut”, Anvar Obidjonning “Jo'ja”, habib Raxmatning “Jala darakchisi”, Muqaddas Abdusamatovanning “Fasllar

ko'rki", Umida Abduazimovaning "Tinchlik nima?", Qambar Otayev "Non qayerdan keladi?", rus shoiri Pushkinning "Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak" kabi she'riy asarlar, Abduraxmon Akbarning she'riy topishmoqlari, xalq maqollari o'rin olgan.

Boshlangich sinf o'qish darsliklarini barchasi O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi bilan boshlanadi. 1-sinf o'qish kitobi [7, 3-10-b.]ning I bobi "O'zbekiston—vatanim mening" deb nomlanadi. Undan "Vatan - bu..." "O'zbekiston askarlari", "Ota rozi - vatan rozi", "Tinchlik nima?" nomli she'lar o'rin olgan. "Vatan bu..." she'rida vatanga bo'lgan muhabbat, uni ardoqlash hamda qadrlash g'oyalari ilgari surilgan. Bu she'r orqali o'quvchilarga vatanni yurak kabi avaylab, har bir qarich tuprog'ini ko'z qorachig'iday e'zozlash lozimligi o'rgatiladi.

"O'zbekiston askarlari"[7, 34-b]she'rida vatanimizni qo'riqlayotgan vatanimiz himoyachilari o'zbek askarlari madhi ulug'langan. Bu she'rni o'qigan har bir yosh vatan posbonlarining yuragida vatanga bo'lgan muhabbat, unga bo'lgan sodiqlik jo'sh urmasdan qolmaydi. Ularni harbiylik kasbiga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi. Mard, jasur insonlar bo'lib tarbiyalanishida munosib o'rin egallaydi. She'r matni qisqa, tushunarli va bolajon tilida yozilgan bo'lgani uchun uni yod olish va tushunish oson.

Ushbu bo'limda mustaqil o'qish uchun berilgan "Tong" she'ri [7, 20- b] da tabiatdagi musaffo tong va bolalikdagi beg'ubor qarashlar go'zal bir tarzda uyg'unlashtiriladiki, unda yosh yuraklarga vatanni aziz va musaffoligi tong kabi o'xshashligi aytiladi.

Quyosh balqib tog' ortidan,
Yana shafof tong otar.
Bu tong qaynoq yuragimda
Ajab xislar uyg'otar.
Shu tong kabi musaffodir
Mening aziz Vatanim.
Shu tong kabi musaffodir
Orzularim ham manim.

“Biz buyuklar avlodi” bo’limi [7 ,26- b.]da buyuk ajdodlarimiz to’g’risida so’z boradi. Bu bo’limdagi “Ulug’bek bobom” she’rida bobokalonimiz Ulug’bek to’g’risida shunday misralar keltirilgan:

Fan ko’ksila yashaysiz hamon,
Ardoqlaydi faxr nur zamon.
O’chmagaydir hech izlaringiz,
Biz yerdagi yulduzlaringiz.

Bu she’r orqali shoir bobokalonimizni fan sohasiga qo’shgan hissalarini bayon etilib, bu orqali yosh avlodni fanga bo’lgan qiziqishini tarbiyalaydi.

“Ko’klam — yashardi olam” [7,100-b.] bo’limida bahor haqida, onajonlarimiz bayrami, yangilanish bayrami Navro’z haqida, tabiat haqida she’rlar berilgan. Bu orqali o’quvchilarga tabiatni bahordagi o’zgarishlari, gullab yashnashi tarannum etiladi. “Navro’z” she’rida turkiy xalqlargagina xos bo’lgan bayramimizni go’zalligi o’quvchilar ongiga sodda va ravon til bilan ifodalab berilgan.

“Ilm - aql chirog’i” [7,132- b] bo’limida ilm, kitob, maktab haqida she’rlar berilgan. Bu she’rlar orqali o’quvchilarni ilm olishga, jamiyatga kerakli inson bo’lib kamol topishiga, bu yo’lda tinmay mehnat qilishga chaqiriladi.

Bu she’rlar tushunarli va teran mazmunli bo’lib, yod olishga, g’oyani idrok etishga qulay tarzda bayon etilgan.

“Odob-insonga husn” [7, 150- b]bo’limida ezgu xislatlar, insonni ulug’lovchi fazilatlar borasida so’z boradi. Bular orqali o’quvchilarni har tomonlama komil inson etib tarbiyalash maqsad qilib olinadi.

Mehnatning tagi rohat bo’limida, mehnat, mehnatsevarlik kamtarlik g’oyalarini o’zida aks ettiruvchi she’rlar berilgan. Bunda asosiy e’tibor insonlar mehnati, uning hayotimizdagi muhim tomonlari aks etadi.

2-sinf o’qish darsligidan ham taniqli shoirlarimizning rang-barang mavzudagi she’rlari o’rin olgan. Darslikning ilk bo’limi “Ona yurtim-oltin beshigim” deb nomlanadi. Bo’lim Po‘lat Mo‘minning “Vatanjonim, vatanim”[8, 3-b.] she’ri bilan boshlanadi.

Vatanjonim, vatanim,

Ko‘zim quv nab ko‘rganim.

Istiqboldan kulganim,

O‘zbekiston – gulshanim.

“Vatanjonim, vatanim” she’rida O‘zbekistonimizning dunyoga mashhur ekanligi, uni gullab yashnashiga yurtdoshlarimiz o‘z qo‘llari bilan hissa qo‘shishlari o‘quvchilar ongiga singdiriladi.

"Oltin kuz-hosiling yuz" [8, 49-b.] bo‘limida kuzning tarovati, go‘zalligini tarannum etuvchi she’rlarga keng o‘rin berilgan. She’rlar orqali o‘quvchilarni kuz faslida bajariladigan ishlar, kishilar mehnati haqida bilimlarga ega bo‘ladilar.

"Otalar so‘zi-aqlning ko‘zi" [8, 86-b.] bo‘limida insoniy fazilatlar, go‘zal xulqlar borasida fikr yuritiladi. Bu orqali o‘quvchilar qanday fazilatlarga ega bo‘lishlari zarur ekanligini anglab yetadilar:

Salom bilan boshlanar

Salom chiqqan og‘izdan

Bilsang odob va axloq,

Chiqmas sira yomon so‘z.

Salom bilan begona

Salom, assalom ming-ming

Bular tezda do‘st-inoq

So‘zlar ichra durdona.

Salom har bir bolaning

Odobidan nishona.

3-sinf o‘qish darsligida she’rlar va she’riy asarlarga alohida o‘rin berilgan. "Xalq og‘zaki ijodi" [9, 27-b.] bo‘limidan xalqimizning asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelgan milliy meroslarimiz, xalq qo‘shiqlari, masallar o‘quvchilar e‘tiboriga havola etiladi. Bunda o‘quvchilarni milliy merosimizni o‘rganishiga bo‘lgan qiziqishlari tarbiyalanadi.

“Orzular qanotida” [9, 111-b.] bo‘limida bolalarni o‘z tengqurlarining bugungi kundagi orzu va intilishlari fikr va qarashlari turli she’riy asarlarda aks

ettirilgan. She'rlar orqali o'quvchilarni do'stga mehr muhabbatlilik, sadoqatlilik tuyg'ularini tarbiyalash vazifalari qo'yilgan.

Tug'ildik biz orzu bo'lib,
Dilga tushgan yog'du bo'lib.
O'zimizni oldik tanib,
Yashaymiz shu yurt deb yonib.
Qaddi mag'rur, tik boshlari,
Biz - istiqdol tengdoshlari.

“Ulug'lardan o'rganmoq–oqillik” [9,126-b] bo'limida allomalarimizning o'g'itlari, pand - nasihatlari, hikmatli so'zlari she'riy tarzda ifoda etilgan. Ular orqali o'quvchilar o'rganishlari lozim bo'lgan go'zal xislatlar haqida chuqur tushunchaga ega bo'ladilar.

Navoiy hikmatlari [9, 138- b.]
Oz-oz o'rganib dono bo'lur,
Qatra - qatra yigilib daryo bo'lur.
Aytar so'zni ayt, Aytmas so'zdan qayt.
Sabr bila ko'p boylik ish ochilur,
Ishda oshiqqan ko'r toyilur

"9-may - xotira va qadrlash kuni" [9, 200- b.] bo'limida vatanimiz uchun jon fido etgan ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, ularni chekkan jabru sitamlari she'riy misralarda aks ettirilgan. Bu she'rlarni o'qiganda o'quvchilar o'sha insonlarini ruhiy kechinmalarini ko'z oldidan o'tkazadi.

Yurtim ado bo'lmas armonlaring bor,
Toshlarni yig'latgan dostonlaring bor.
O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim,
Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor [9, 202- b.].

4-sinf O'qish kitobida ham o'quvchilarga estetik tarbiya beruvchi bilim va salohiyatlarini oshiruvchi xilma - xil she'rlar berilgan.

"Ma'naviyat - qalb quyoshi" [10, 26-b.] bo'limida o'quvchilarni ma'naviy kamolotga eltuvchi rang- barang she'rlar berilgan. Ularni o'qitish orqali bolani ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalash masalasi ilgari suriladi.

"Xalq og'zaki ijodi" [10, 42-b.] bo'limida og'zaki ijodimizga taalluqli turli milliy qo'shiqlarimiz, laparlarimiz, bolalar o'yinlari she'riy tarzda talqin etilgan.

Boychechagim boylandi,

Qozon to'la ayroni.

Ayroningdan bermasang,

Qozon tovog'ing vayroni [10, 42- b.]. Ushbu "Boychechak" she'ri orqali o'quvchilar bahor faslining kirib kelishini bilib oladilar.

Xo'p hayda-yo, xo'p hayda,

Qalqon qulog'im hayda,

Temir tuyog'im hayda,

Xirmonni qilgin mayda [10, 43-b.] sh'eri orqali o'quvchilar ushbu she'rni qo'shiq sifatida qaysi paytda aytilishini, xirmon egasi otni qanday so'zlar bilan erkalashini bilib oladilar.

"Kumush qish"[10, 56-b.] bo'limida she'riy asarlar orqali hammamiz uchun sevimli bo'lgan qish manzaralari tasvirlangan. Undagi quvnoq satrlar bolani zavq - shavqqa to'ldirib, bu faslning go'zalligidan bahra olishga undaydi.

Savab bulut to'shagin

Qish to'zgitar momiq par.

Yerga serbar oq namat

Yozilganday yaltirar[10, 86-b.].

O'qish darsliklarda o'rin olgan har bir she'riy asar o'quvchilarga tarbiya berib ularni fikrlashga, atrof -muhit bilan munosabatga kirishishga, dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli ham o'qish darsliklariga kiritilgan har bir she'rning g'oyasi, tarbiyaviy ahamiyati, janri, o'qish va yod olish uchun qulayligiga asosiy e'tiborni qaratish lozim. She'riy asarlarni o'rgatish o'qituvchidan yuksak mahorat va malaka talab etiladi. Shu sababdan ham

boshlang'ich sinflarda o'qish darslarida o'rganiladigan she'riy asarlarni o'quvchilar ongiga yetkazishga yuzaki qarab bo'lmaydi.

She'riy ohangni his qilmaslik, matn so'zlarini to'la tushunib yetmaslik she'r yodlashni zerikarli mashg'ulotga aylantiradi. Ma'nosi anglanmagan matni yodlash oson kechmaydi. Buni deyarli barcha sinflarda o'rganiladigan "*O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi*" misolida ko'rish mumkin. Ma'lumki, madhiya kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallab maxsus yaratilmaydi. Binobarin, uning matnidagi "hur o'lka", "to abad", "ilmu fan", "shuhrating", "ajdodlar", "mardona ruhi senga yor", "o'chmas iymoni", "istiqlol mash'ali", "tinchlik posboni", "haqsevar ona yurt", "mangu bo'l obod", "jo'sh urgan" kabi ko'pdan-ko'p so'zlar, iboralar o'quvchilarga izohlab tushuntirilmasa, ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

4-sinfda Q. Hikmatning "Qish to'zg'itar momiq par"[10, 86-b.] she'rini o'rganishda albatta tabiat manzaralarini izohlash talab etiladi. She'rni o'qishdan oldin unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o'tkaziladi yoki she'r mazmunini tushunish uchun o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan voqealarni o'qituvchi qisqa qilib aytib beradi.

Ma'lumki, qish fasli go'zal ko'rinishi bilan odamda yoqimli tuyg'ular uyg'otadi. Qishda bolalar chana uchish, qorbobo yasash, qorbo'ron o'ynashdan olam-olam zavq oladilar. Qishdagi sof va toza havogina emas, oppoq qorga burkalib turgan daraxtlar, dala-bog'lar kishida ajib bir kayfiyat uyg'otadi. She'rni o'rganish jarayonida agar qor yog'magan bo'lsa, ayni manzara tasvirlangan rasmlardan foydalanish ham mumkin. Qish fasli haqida gapirilar ekan, albatta, "kumush" sifati qo'shib aytiladi. Bu shu fasl hukmronligi davridagi manzaraga, qorning oppoq bo'lib tovlanishiga, ko'zlarni qamashtirishiga ishoradir. Ushbu she'rni o'rganish darsi dastlab o'quvchilarning qish fasli haqidagi tushunchalarini aniqlashdan boshlanadi. Qishning o'ziga xos belgilari, qishda o'ynaladigan o'yinlar, qish manzarasi yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. O'quvchilarning qish faslida sovuq bo'lishi tufayli ayrim qushlarning o'lkamizni tark etib janubga uchib

ketishlari, qishda sovuqqa mos issiq kiyimlarning kiyilishi haqidagi tushunchalari aniqlashtirilib, to'ldiriladi. Shundan so'ng o'qituvchi she'rni ifodali o'qiydi.

Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali ta'limning asosiy shakli she'rni ifodali o'qish hisoblanadi. Lirik she'rni ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhim. Shuning uchun she'r birinchi marta o'qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She'r o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O'qituvchi she'rni shunday ifodali o'qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so'z kuchliroq ta'sir etsin. So'ngra she'rni mustaqil o'qish topshiriladi. O'qish oddiy bo'lishi kerak. O'qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g'azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo'l qo'ymaslik zarur. Bolalar she'rni o'qiganda, she'riy satrga rioya qilishlari kerak, bu jarayonda ularning she'r ritmini buzmasliklariga erishish kerak.

O'quvchilar she'r matnini mustaqil o'qiyotganlarida doskaga ma'nosi izohlanadigan so'zlar yozib qo'yiladi. Masalan, "Qish to'zg'itar momiq par" she'ri o'rganilganda "to'zg'itar", "momiq par", "oq namat", "nazdimda", "zarra" so'zlari izohlanadi. Shundan so'ng, she'r o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi, uning mazmuni yuzasidan savollar asosida suhbat o'tkaziladi. Unda quyidagicha savollar berilishi mumkin: "She'rda qaysi fasl tasvirlangan ekan?", "Shoir qor yoqqan joylarni nimaga o'xshatadi?", "She'rda qor yog'ishi nimaga qiyoslangan?", "Shoir qorga qanday murojaat qiladi?". O'qituvchi berilgan javoblarni to'ldirib, o'quvchilarning qish fasliga doir tushunchalarini boyitadi.

"Qish" [10, 90-b.] she'rining hajmi unchalik katta emas. Lekin u qishda hayvonlar hayotida ro'y beradigan o'zgarishlarni bilib olishga yaqindan yordam beradi. Bu she'rni o'qishdan oldin ham o'quvchilar bilan savol-javoblar o'tkaziladi. O'quvchilar diqqati hayvonlarning qishdagi hayotiga qaratiladi. Masalan, qishda yovvoyi quyonlarning rangi o'zgarib, qorda o'zini dushmandan himoya qiladigan oq rangga kirishi, ayiqning o'siq yunglari sovuqda yashashga qo'l kelishi to'g'risida tushuncha beriladi. She'r matni bilan tanishishdan oldin doskaga ayoz, quyruq, so'qmoq, piyma, po'stin, pahmoq so'zlari yozilib, ma'nosi izohlanadi.

She'rni navbat bilan o'quvchilarga to'rt-besh marta o'qitilganidan keyin uning mazmuni yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. She'rning to'la mazmuni uch-to'rt o'quvchilarga gapirtiriladi, ularning fikr-mulohazalari to'ldiriladi. Mazkur mavzuni o'rganish jarayonida maktab atrofiga sayohat uyushtirish ham mumkin. Qishda qor bosgan dalalarni, tomlarni, daraxtlarni, odamlarning va qushlarning qishdagi hayotini kuzatish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va nutqining ifodali, sermazzun bo'lishi uchun boy manba hisoblanadi.

O'quvchilar barglari to'kilib, sovuqda qor bosib turgan daraxtlarni ko'rar ekan, shu holatni ifodalagan "qor ko'rpasiga o'rangan yalang'och daraxt" yoki "sovuqda mudrayotgan daraxt" kabi iboralarni topishga harakat qiladi, bu esa o'quvchilarning lug'at boyligining oshishiga xizmat qiladi.

She'r matni ham savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo, she'r mazmuni haqida o'quvchilarga ko'p savol berish tavsiya etilmaydi. O'quvchilar she'rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o'zi kifoya. Shuni ham aytish kerakki, bolalar hayoti, ularning o'ziga xos fikrlari, his-tuyg'ulari, qiziqishlarini ifodalovchi, shuningdek, zamonamiz qahramonlari, o'zbek xalqi, Vatan himoyasi, xalqimizning qahramonlik ishlari haqidagi she'rlar mazmunini to'liqroq tahlil qilish talab etiladi. Bunday she'rlarni o'qishga maxsus tayyorlaniladi. She'r mazmuniga asos bo'lgan tarixiy voqea haqida qisqacha so'zlab beriladi yoki suhbat o'tkaziladi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan ko'pgina she'rlarni tahlil qilib, ifodali o'qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi.

She'riy nutq yengil yodlab olinadi, bolada estetik his-tuyg'u uyg'otadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar saviyasiga mos bolalarbop ravshan til bilan yozilgan sodda ritmli jarangdor she'rlarni bolalar tez va oson yodlab oladilar.

Kichik yoshdagi o'quvchilarga she'rni qanday yodlash kerakligi o'rgatiladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan she'rni teng satrli bir necha qismga bo'ladi. O'quvchilarga har bir satr oxirida pauza (to'xtam) qilish, buning uchun satr oxirida tinish belgisi bo'lishi shart emasligi, ritmik to'xtamda ovozni

nuqtadagi kabi pasaytirmaslik lozimligi, bu tugallanmagan fikrni davom ettirishga imkon berishi tushuntiriladi va bo'lingan qismlar navbati bilan yodlatiladi.

Epik (voqeiy) she'rlar yoki she'riy usuldagi adabiy ertaklar kishilar hayotida yuz bergan yoki yuz berishi mumkin bo'lgan biror voqeani umumlashtirgan holda ifodalash bilan hikoyalarga o'xshaydi. Voqealarni ifoda etuvchi vositalarning ohang jihatdan tartibga solinishi, kichik bo'laklarning izchil va bir me'yorda takrorlanishi, misralarda ohangdosh so'zlarning qo'llanishi bilan she'riy nutq sanaladi. Shu sababli bunday asarlarni o'rganishda she'r va hikoya ustida ishlash metodikasidan foydalaniladi.

Epik she'rlarni o'qishga o'quvchilar alohida tayyorlanadi, ularda ifoda etilgan voqealar yuz bergan davr haqida tasavvur hosil qilinadi. Bunday she'rlarning mazmuni qay darajada o'zlashtirilganligiga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bunda ta'limiy vositalardan rasmlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Asar matni ustida ishlashda uni qismlarga bo'lish, har bir qismdagi asosiy fikrni aniqlash, reja tuzish va qayta hikoyalash, qahramonlarga tavsif berish va tarbiyaviy xulosalar chiqarish kabi tahliliy ishlar amalga oshiriladi.

Epik she'rlarning nasriy asarlar kabi tuguni, kulminatsion nuqtasi, yechimi mavjud bo'ladi. Shu sababli asar mazmuni savol-topshiriqlar orqali tahlil qilinadi. Savol-topshiriqlar o'quvchilar tomonida ham tuzilishi mumkin.

Bunday she'rlarni tahlil qilish asar voqealari jarayonida qahramon holatlarini o'quvchi ko'z oldida yaqqol gavdalantirish imkonini beradi. Bunda ayrim epizodlarga rasmlar ham chizdirish mumkin.

Epik she'rlarning badiiy til vositalari ma'nolarini ochish, ohangdosh so'zlarni aniqlash, band va misralar, bo'g'inlar sonini belgilash, ifodali o'qish, ayrim epizodlarni yod oldirish kabi ish turlari qo'llansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

4-sinf O'qish kitobida [10,14-b.] "Mardlik va aql yorug'ligi" (M. A'zam), "Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi", "Sparq hikoyasi" (A. Oripov), "Har kim ekanin o'rar" (M. Abdurashidxonov), "Sodda qishloqi va uning eshagi qissasi" (A. Jomiy), "Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak" (A.S. Pushkin),

“Bo’rining tabib bo’lgani haqida ertak” kabi epik she’rlar berilgan. Bu asarlar ustida ishlashda ham yuqorida ta’kidlab o’tilgan ish turlaridan foydalanish kerak.

2.2. She’riy asarlarni o’rgatishda interfaol metodlarning ahamiyati

Boshlang’ich sinf o’quvchilari nutqini o’stirib borishda turli xil mavzudagi asarlarni turlicha usullarda, yangi pedagogik texnologiya asosida, muammoli o’qitish metodi asosida, noan’anaviy dars o’tish usullaridan unumli foydalanib tushuntirib o’qish orqali ham ularning nutq boyliklarini shakllantirish mumkin.

O’qish darslarida zamonaviy usullarni qo’llash orqali biz darslarni samarali tashkil etishimiz mumkin bo’ladi.. Hammamizga ma’lumki boshlang’ich sinf o’quvchilari yangilikka intiluvchan, qiziquvchan, bilim olishga shijoati yuksak darajada bo’ladi. Odatda o’qituvchining o’quvchilargi bir xil qolipda dars o’tishi an’anaga aylangan. Endilikda esa o’quvchilarga mustaqil topshiriq berish, darsga mustaqil tayyorgarlik ko’rib kelish, berilgan mavzu yuzasidan erkin fikr bildirishni yangi usulda dars o’tishni asosi deb bilamiz. Noan’anaviy usulda biz o’quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruhlarga bo’lib dars o’tishiimz mumkin. Bunda har bir o’quvchi bilan yakka tartibda ishlashga imkoniyat bo’ladi. Boshlang’ich sinflarda dars o’tishda asosan o’yin uslubidan, modulli texnologiyadan fanlararo integratsiyadan foydalanish mumkin. Bu usullarning hammasi ham bolalardan mustaqil ishlashni, o’z fikrini erkin bayon etishni, keng fikrlashni talab etadi.

O’quvchilarga har bir matnni ta’sirli qilib o’qish ikkinchi sinf uchun qiyin, lekin o’quv dasturi talab etgan bunday o’qishga kirishish uchun, avvalo, ruhan tayyorlanishlari, ko’proq mashq qilishlari kerak. Nazorat qilinmasa, ko’p hollarda bolalar matnni xafsalasizlik bilan bir ohangda o’qiydilar. Bunday o’qishning boshqalarga ta’siri ham bo’ladi. Shunday paytlarda bolalar e’tiborini tortib, kim shu she’rni ta’sirliroq o’qib bera oladi, - degan savol bilan murojaat etish mumkin. Ana shunda bolalar o’rtoqlarining o’qigani maqsadga muvofiq bo’lmaganini payqab, undan yaxshiroq o’qishlari zarurligini his etib, vazifani mas’uliyat bilan bajarishga kirishadilar. Shuningdek, O’qish kitobida berilgan har bir rasm ularda

estetik zavq uyg'otishga xizmat qilishi lozim. Darsni tashkil etishda bolalar e'tiborini qiziqarli misollarga jalb qilish, tasviriy san'at asarlarini maroq bilan tomosha qilishga qaratish, shu yo'sinda asosiy mavzuga o'tish lozim. O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rishda, ko'rgazmali qurollar tayyorlashda o'quvchilarning didini, nafosat tarbiyasini o'stiradigan materiallar tanlashi, uning o'zi esa darsga hamisha yaxshi kayfiyat bilan kirishi, o'quvchilarda ham yaxshi kayfiyat hosil qilishi kerak. Bunday sifatlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun zaruriy odatga aylanishi lozim.

Darsda bolalarga erkinlik berish, o'qituvchi bilan bolalar o'rtasida samimiy munosabat bo'lishi, ishonch va hurmat tobora ortib borishi kerak.

O'tilgan mavzuni so'rashda ham, yangi mavzuni o'rgatishda ham bolalarning xotirasini mustahkamlovchi omillardan foydalanish, sezgi a'zolarining ishtirokini kuchaytirish, ko'rish va eshitish faoliyatlarini rivojlantirish, ularning faolliklarini ta'kidlab, darsda yanada yaxshi qatnashishga undash lozim.

Sinf xonasini dars o'tishga tayyorlash, ko'rsatiladigan ko'rgazmalar, o'qib beriladigan har bir matn yoki magnit tasmasidan eshittiriladigan yozuvlarni taxt qilib qo'yish, dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan unumli foydalanish, o'quvchilarni esa mas'uliyatni xis etish va o'quv qurollarini taxt qilishga o'rgatish darsning samarali o'tishiga imkon beradi.

Mavzuning oson yoki murakkabligiga qarab, dars jarayonida vaziyatni o'zgartirish, muammoli o'qitish usulini keng qo'llash, yangi pedagogik texnologiyaning interfaol metodlardan foydalanib borish yaxshi samara beradi. Bunda bolalar tomonidan darsning qanday o'zlashtirilayotganini kuzatib, ularning idrok etish faoliyatlarini, hissiyotlarini faollashtirish kerak.

Bolalarda nutq madaniyatini tarbiyalash uchun og'zaki nutq namunalaridan foydalanish, ularga taqlid qilish, ko'proq she'riy asarlarni yod olishga e'tibor berish mashqlarini o'tkazish tavsiya etiladi. Bolalarga hamisha o'z nutqiga e'tiborli bo'lish, o'rtoqlarining nutqiga odilona baho berish, masalan, "tushunarli", "yoqimli", "yoqimsiz" kabi iboralarni farqlash o'rgatiladi. Jumladan, yoqimli she'rlar o'qib berish, Zulfiyaning she'rlarini nafis ekanligini bolalarga o'qtirish

uchun o'qituvchining o'zi tarixiy manbalarni chuqur o'rganishi, ulardagi boy merosni bilishi, kerakli o'rinlarda ulardan ijodiy ravishda foydalanishi lozim. Jumladan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Fuzuliy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Mahtumquli, Abdulla Avloniy kabi shoirlarning bolalarga mos she'riy asarlaridan namunalar o'qib berish orqali boy madaniy merosimiz bilan ularni tanishtirish, milliy madaniyatimiz durdonalaridan xabardor qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bolalarni qadimiy urf-odatlar, tarixiy-milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularning dunyoqarashlarini shakllantirish, insonlarga xos eng yaxshi xislatlarni singdirish kabi g'oyalar, asosan, ular o'qiydigan asarlarda jamuljam bo'lmog'i lozim.

Tabiatni muhofaza qilish haqidagi asarlarni, xalq og'zaki ijodi materiallarini chuqurroq o'rganadilar. Ular orqali bolalar Vatanimizning ramziy belgilari O'zbekiston Respublikasining Kongsitutsiyasi, ulug' allomalarimiz Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek Alishe'r Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniylarning xalq manfaati uchun kurashganlari haqida tushunchaga ega bo'lishlari talab qilinadi.

3-sinf O'qish kitobi "O'qish va nutq o'stirish" dasturiga asoslangan bo'lib, unda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ruhiy holatlari hisobga olingan.

Darslikdan Abdulla Avloniy, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Cho'lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Mirkarim Osim, Shukrullo, Quddus Muhammadiy, Xudoyberdi To'xtaboyev, Erkin Vohidov, Tohir Malik, Hakim Nazir, Po'lat Mo'min, Anvar Obidjon, Sunnatilla Anorboyev, Erkin Malikov kabi shoir va yozuvchilar asarlari, "Hadis" va "Qobusnoma"dan namunalar o'rin olgan.

"Ulug'lardan o'rganmoq - oqillik"[9, 126-144-b.] bo'limidan o'rin olgan asarlar orqali o'tmish allomalarimiz: Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlarning dunyo ilmini, ma'rifatini yaratganliklari bilan tanishtiriladi. O'quvchilarda allomalarimiz bilan faxrlanish, ularni hurmatlash tuyg'usi uyg'otiladi. Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Oybek, Habib Abdullaning fandagi

yangiliklari, vatanimiz ravnaqiga qo'shgan hissalarini, Vatan, xalq uchun qilgan xizmatlarini o'quvchilarga yetkazish orqali xalqimiz udumlari, qadriyatlarimizni bilib oladilar.

“O'qish kitobi” ning asosiy vazifasi bolalarda xalq og'zaki ijodiga, adabiyotga qiziqish uyg'otish, kitobni sevish, undan mustaqil foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirish va ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashdan iboratdir. Albatta bular matn ustida ishlash orqali amalga oshiriladi. Asarlarni o'qish va uning matni ustida ishlash uchun dars soatlari ajratilgan.

O'qish darsi mehnat, ona tili, pedagogika, musiqa, tasviriy san'at fanlari bilan ham uzviy bog'langan bo'lishi lozim. Bu esa o'z navbatida bolalarda estetik didni, san'at asarlarini tushunish va qadrlash ko'nikmalarini o'stiradi. Shaxsning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi.


4-sinf o'qish darslarida badiiy asar o'qiladigan vaqtdagi kirish mashg'ulotida asar mazmuniga mos bo'lgan g'oyalar ustida fikr yuritiladi. Bu o'rinda o'qituvchining gaplari obrazli va hayajonli bo'lishi kerakki, bolalar tinglab hayajonlansinlar. Masalan, she'r o'qiladigan darsda shu she'r mazmuniga yaqinroq musiqa, ashula eshittirish mumkin. Eshitgan kuylarini o'quvchilar mustaqil mulohaza qilishlari, shu asosida o'tkaziladigan suhbat va o'qituvchining izohlab berishi o'quvchilar didini o'stiradi. She'rni o'qishga qiziqishlarini oshiradi. Asar tili ustida ishlashga ayniqsa 3-4 sinflarda ko'proq e'tibor beriladi. O'quvchilar bilan asardagi ayrim so'z va iboralarni almashlab ko'rish mumkin. Bu bilan asarda bo'lgan o'zgarish taxlil qilinadi. Asar mazmuni o'zgarganligi o'quvchilarga ko'rsatish bilan uning tili va yozuvchining mahorati sharhlanadi. Ayniqsa, she'riy asardagi so'zlarning birortasini ham o'zgartirib bo'lmasligi his etiladi. Chunki she'rdagi so'zlardan biri boshqa so'z bilan almashtirilsa ma'no o'zgaradi, she'r satrlaridagi bo'g'inlar sonida bir xillik bo'lmaydi. Shuning uchun ham badiiy asar yozuvchining ijodiy mehnat maxsuli bo'lib, uni o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Boshqa fanlardagidek boshlang'ich sinflarda berilgan badiiy asar namunalari ham o'quvchilarning yoshi, sinfi bilim saviyasiga mos holda berilgan. Bu o'rinda shuni unutmaslik kerakki, har bir badiiy asar o'quvchilar bilimiga mos kelishi

kerak, aks holda uning mazmunini, g'oyasini o'zlashtirish kutilgandek natija bermaydi.

Biz bu o'rinda 4 - sinf O'qish kitobida o'qib - o'rganish uchun tavsiya etilgan asarlar vositasida o'quvchilarga estetik tarbiya berish xususida fikr yuritamiz.


Mirtemirning "Tut"[10,179-b.] she'rida bolalarning mehnatga muno-sabatlari tarbiyalanadi. Shoir birgina meva - tut misolida o'lkamizning bog'-rog'lari, bog'bonlar mehnatini kishi ko'zi o'ngida gavdalantirishga erishgan. Shoir tutni bolga to'lgan sutga o'xshatadi va undan hayotiy xulosa chiqaradi. Bolajonlarni tabiatni asrab — avaylash bilan birga gullab yashnatish zarurligi g'oyasini ilgari suradi. Bu mavzuni klaster metodi orqali tushuntirish maqsabga muvofiq.




"Boychechak" [10, 42-b.] bolalar qo'shig'i bo'lib bahorning kelishi bilan bog'liq. Ma'lumki qishning qattiq sovug'i bolajonlarning bahorga intiqiligini oshiradi. Bahor yoshlik tabiatning uyg'onishi fasli sifatida o'ziga xos o'ringa ega. O'quvchilar "Boychechak" she'rini o'qib o'rganish jarayonida tabiat ko'rkidan zavqlanadilar, ular ko'z o'ngida ko'm-ko'k dalalar daraxtlarning gullar-ga burkanishi, turli qushlarning sayrashi va cheksiz zavq-shavq bag'ishlaydi. Bu mavzuni "B.B.B texnologiyasi" orqali tushuntirish maqsadga muvofiq.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Boychechak gul, bahor elchisi	Qaerda o'sishini, qanday rangda bo'lishini	Dalalarda bo'lishini, oq rangligini, chiroyli gullashini

1-sinf O'qish kitobidagi [7,22-56- b.] Po'lat Mo'minning “Bu juda soz, juda soz”, “Mehribonim oyijonim”, “Oftob va odob”, “Yer nima der?”, Odil Abduraxmonning “O'zbekiston askarlari”, “Oy allasi” she'rlarini “**Venn diagrammasi**” metodi orqali tashkil etish maqsadga muvofiq.



Eson Raximovning “Ota rozi - vatan rozi”, Tursunboy Adashboyevning “Bahor”, Olim Mahkamning “Tong”, Obid Rasulning “Vaqtning qadri”, Rauf Tolibning “Navro'z”, Hamid Olimjonning “Lola”, Anvar Obidjonning “Bekinmachoq”, “Yaxshi niyat”, Abdulla Oripovning “Qushcha”[7; -b.] she'rlarini “**Qanday?**” **iyerarxik diagrammasi** orqali tushuntirish lozim.



Tolib Yo'ldoshning “Ota-ona”, Quddus Muhammadiyning “Maktab-oftob qo'shigi”, Zafar Diyorning “Kitob mening do'stimsan”, Obid Rasulning “Kitob”, Miraziz A'zamning “Oltin quyosh”, Safo Ochilning “Sветофор”, Yo'ldosh Sulay-

monning “Ming yashang”, Qambar Otayevning “Yer”, Ilyos Muslimning “Turnalar” kabi she’rlarini FSMU texnologiyasi orqali tashkil etish mumkin.

Ota-ona- aziz zot

(F) - Fikringizni bayon eting.

(S) - Fikringizni bayoniga biron sabab ko’rsating.

(M) - ko’rsating sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

(U) - fikringizni umumlashtiring.


2-sinf o’qish darslarida Hamza Imonberdiyevning “O’zbekistonim”, Narimon Orifjonovning “Vatan”, Jumaniyoz Jabborovning “Istiqlol”, Po’lat Mo’minning “Xumo qushi”, “Barcha bola do’st bo’lsa”, Ibn Sino “Bobo-ulashar da’vo”, “Dadam ishdan kelsalar”, Muxtor Xudoyqulovning “Sohibqiron Bobomiz”, “Mirzo Ulug’bek”, Usmon Nosirning “Yur, tog’larga chiqaylik”, Yo’ldosh Sulaymonning “Tilagim”, Erkin Vohidovning “Mevalar”, Qambar Otaning “Bog’da”, G’ani Abdullayevning “Mehnat”, Quddus Muhammadiyning “O’quvchiga estalik”, “Kitobimni qancha sevsam oz bo’lur”, “Bilim ol, hunar tanla”[8, 6-68-b.] kabi sh’erlarini o’rgatishda “ Toifalash jadvali” metodidan foydalanish mumkin.

Toifalash jadvali

O’quvchiga estalik		
O’quvchiga xos xislatlar	O’quvchining vazifasi	Misollar
Aqli, odobli, ziyrak, bilimdon, tirishqoq bo’lishi	Bilim olishi, dars-ga vaqtida kelishi	Odobli bola elga manzur.

Rauf Tolibning “Orzular”, Ibrohim Donishning “Inoqlikda gap katta”, Tolib Yo’ldoshning “Vaqt qadri”, Yusuf Shomansurning “Muallimim”, Ilyos Muslimning “Maktabdan kelganimda”, “Turnalar”, Quddus Hikmatning “Kitob”, Habib Raxmatning “Kurashchi bola”, Shodi Sattorning “Qorboboning sarhisobi”, “Tabiat”, Shukur Sa’dullaning “Qish”, Otayorning “Bahor keldi”, Uyg’unning “Bahor”, Mirshakarning “Bolalar o’ynasin deb”, Xilola Isoqovaning “Buvijonimga”, Abdulqosim Firdavsiyning “Ona aziz”, Safo Ochilning “Oymoma”, “Yomg’ir”, Muhammadalining “Shudring”, Mashrab Boboyevning “Yulduzlar”,

Ibrohim Donishning “Topishmoq”[8; -b.] kabi she’rlarini mustahkamlashda esa “**Nima uchun?**” texnologiyasini qo‘llash mumkin.



3-sinf o‘qish kitobi[9; 10-b]da Po‘lat Mo‘minning “Mustaqillik ahillikdan”, “Ibn Sino bobo ulashar davo”, “Kim sindirdi bu niholni?”, “Kitobim qo‘limda”, Abdulla Oripovning “Sizga” kabi she’rlarni o‘rgatishda “**Senkveyn**” metodidan foydalansa maqsadga muvofiq. Sinkveyn tuzishda quyidagilarga amal qilish kerak:

1- qator: Mavzu birgina so‘z, ot orqali ifodalanadi.

2- qator: Mavzu ikki so‘zdan iborat sifat bilan ifodalanadi.

3-qator: Mavzu doirasidagi hatti-harakat uchta so‘z orqali ifodalanadi. Bu so‘zlar fe‘l yoki ravishdosh bo‘lishi lozim.

4-qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to‘rtta so‘zdan iborat bo‘lgan yaxlit fikr ifodalovchi gap yoziladi.

5-qator: Mavzuni takrorlaydigan sinonim so‘z yoziladi.

Masalan; Bu metodni Miraziz A‘zamning “Vatan”[10;9-b.]haqida she’ri orqali ko‘rib o‘tamiz.

Vatan

Jannatmakon , go‘zal


Tarbiyalaydi, o‘stiradi, yuksaltiradi

Vatanni sevish bizning burchimizdir.

Yurt

Boshlang‘ich sinf O‘qish kitobidagi “Yoz”, Anvar Obidjonning “O‘ktam avlod”, “So‘nggi axborot”, Tursunboy Adashboyevning “Ona tilim”, “Yomg‘ir”, Erkin Vohidovning “O‘zbekim”, “Yangi yil archasi”, Tolib Yo‘ldoshning “Kuz

kelsa”, “Non haqida”, “Hunarni sev”, Yusuf Shomansurning “Kuz”, Quddus Muhammadiyning “Men dadamga yordamchi”, Muhammad Yusufning “Tushimga kiradi Qodiriy bobom”, Shuxratning “Birinchi qor”, Safar Bannoyevning “Bosh kitob”, “O’zbekiston posbonlari”[9, 18-b.] she’rlarini “Klaster” metodi orqali tashkil etish mumkin.



Qudrat Hikmatning “Ayamajiz”, Kavsar Turdiyevning “Dunyoni saqlar bolalar”, Muhammadjon Dadaboyevning “Tinchlik”, Abdulxay Nosirovning “Istiqlolga sharafshon”, Rauf Tolibning “Biz-istiqdol tengdoshlarimiz”, Xabib Saydullaning “Ikki qiz”, Maqsud Shayxzodaning “Jigarlarga tilaklarim”, Zafar Diyorning “Bahor yaqin”, Yu.Shomansurovning “Bayramingiz muborak”, “Daraxtlarni oqlaganda”, Sulton Jabborning “Qaldirg’och”, Cho’lponning “Ko’klam yomg’iri”, Ilyos Muslimning “Lola”, “Quvnoq o’tsin ta’tilimiz”[9,160-b.] she’rlarni “**Nafis arra texnologiyasi**” dan foydalanish mumkin. Bunda o’quvchilar guruhlariga bo’linadi va har bir guruh o’rganiladigan material bo’yicha alohida ma’lum mavzularni oladi. Har bir guruh o’rganiladigan mavzu bo’yicha oldindan tayyorlangan kerakli materiallar papkasi bilan ta’minlanadi. Boshlang’ich guruhlar 10-12 daqiqa davomida taqdim qilingan materialni o’rganadi va muhokama qiladi.

Masalan, “**Tinchlik**” she’ri quyidagicha o’rgatiladi.

1-misra 1 guruhga

Shuningdek, T.Xolmatovning “Ona tabiat”, Hamza Hakimzodaning “Otamiz”, “Onamiz”, Shuhratning “Qalamning o’kinchi”, Safo Ochilning “Ota ona

duosi”, Berdaqning “Bola”, Erkin Vohidovning “Kamtarlik haqida”, Muhammad Yusufning “Yurtim, ado bo’lmas armonlaring bor”, Barot Isroilning “Tinchlikni kuylaymiz”, Tohir Qahorning “Dorboz bola”[9, 63-b] kabi she’riy asarlarni “SWOT” texnologiyasi orqali tushuntirish lozim. Masalan, “Tinchlikni kuylaymiz” she’rini quyidagicha tushuntirish mumkin.

S -Kuchli tomoni: Biz tinch yurtda yashaganimizdan faxrlanamiz.

W - Kuchsiz tomoni: Tinchlikka rahna soluvchi kuchlarning mavjudligi.

O - Imkoniyat: Tadbir, dars va boshqa yig`ilishlarda foydalanish.

T - Tahdid: Layoqatsizlik, beparvolik

4-sinf o’qish darsligidan Abdulla Oripovning “Iqbol buyuksan”, “O’zbekiston”, S.Rahmoning “Dehqon”, Safo Ochilning “Istiqlol taronasi”, Zafar Diyorning “Serquyosh o’lka”, “Suv bilan suhbat”, Maqsud Shayxzodaning “Toshkentnoma”, Miraziz A’zamning “Mardlik va aql yorug’ligi”, Tursunboy Adashboyevning “Qish” [10,4-90-b.]she’rlarini o’rgatishda“**T- sxema**” metodidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu metod o’quvchilar fikrlarini farqlashni mavjud bilimlarni solishtirishni o’rgatadi. Bu metodni “Istiqlol taronasi” she’rini o’rganishda quyidagicha qo’llash mumkin.

Mustaqillik bayrami	Serquyosh o’lka
1991-yil 31-avgust. 1-sentabr yurtimizda Mustaqillik bayrami . Shodiyona bo`ladi. Hamma bayram sayliga chiqadi . Katta bayram qilamiz.	Mening yurtim O‘zbekiston. Dovrug‘i dunyoni tutgan. Serquyosh hur o‘lka. Baxtiyormiz biz yoshlar.

Shukur Sa’dullaning “Kuz”, “Tinchlik qushi haqida men o’qigan she’r”, “Yoz”, Munavvar Qori Abdurashidxonovning “Har kim ekanin o’rar”, Quddus Muhammadiyning “Ustozingga rahmat”, Abduraxmon Jomiyning “Sodda qishloqi va uning eshagi qissasi”, G’ofur G’ulomning “Buni toping, qizlarim”, “O’ylashni

o'rganamiz", "Ola buzoq", Quدرات Hikmatning "Qish to'zgitar momiq par", "Bahor", Tursunboy Adashboyevning "Qish", "Navoiy bobomlar", Abdulla Avloniyning "Zuluk ila ilon", Muhammad Raxmonning "It-mushuk" o'yini", Hamza Hakimzoda Niyoziyning "To'g'ri so'z bola" [10,130-b.] she'rlarini "Yelpig'ich" texnologiyasidan foydalanish mumkin. "To'g'ri so'z bola" she'rini quyidagicha tushuntirish mumkin.

To'g'ri so'z insonga xos fazilat

Yaxshi nom qoldiruvchi odamlar	Yomon nom qoldiruvchi odamlar
Bilimli, zakovatli, hushyor, rostgo'y, saxiy, dono, mehribon, andishali, kamtar, boshqalarga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, intizomli, ozoda, ko'zi va ko'ngli boy, fe'lu tabiati rost, qilmishlari to'g'ri, botir, ochiq yuz, adolatli...	Bilimsiz, yolg'onchi, zo'ravon, nodon, andishasiz, ichkiboz, egriqo'l, xasis, boshqalarni to'g'ri yo'ldan adashtiruvchi, intizomsiz, qo'rqqoq, birovlariga zarar keltiruvchi ...

4-sinf O'qish kitobida Sulton Jo'raning "Kimning xati chiroyli", Mirtemirning "Qush tili", "Tut", Anvar Obidjonning "Jo'ja", Habib Raxmatning "Jala darakchisi", Muqaddas Abdusamatovanning "Fasllar ko'rki", Umida Abduazimovanning "Tinchlik nima?", Qambar Otayev "Non qayerdan keladi?" [10, 221-b.] kabi she'riy asarlar, Abduraxmon Akbarning she'riy topishmoqlari, xalq maqollari o'rin olgan. Bu she'rlarni o'rgatishda "**Qor bo'ron**" texnologiyasidan foydalanish mumkin. Masalan, "Jala darakchisi" [10, 168-b.] she'rini o'rgatishda sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linib, she'rdagi mazmuni eng ko'p miqdorda to'g'ri javoblar olish maqsadida birgalikda muhokama qilishadi. Bunda o'rganilayotgan mavzuga doir savol topshiriqlar beriladi. Masalan; Jala darakchisi nima? Shoir momaqaldiroqni nimaga o'xshatadi? Qaysi fasl haqida gap borayapti? Qaysi faslda momaqaldiroq bo'ladi? Momaqaldiroqning ovozi qanday? kabi. Har bir to'g'ri javob "yumaloqlangan qor" ko'rinishida o'sha guruhga ball tariqasida yozib qo'yiladi. Eng ko'p ball olgan guruh g'olib hisoblanadi..

Xulosa qilib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida she'rlarni turli texnologiyalardan foydalanib tashkil etish ta'lim oluvchilarni bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi.

2.3. Muammoga doir tajriba-sinov ishlari va uning samaradorlik natijalari

Hech qanday yangiliklarni amalda sinab ko'rmasdan, uning natijasini qanday bo'lishini aytib berib bo'lmaydi. Shuning uchun "Boshlang'ich sinflarda she'riy asarlarni o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish yo'llari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga doir tajriba-sinov ishlarini olib bordim.

Tajriba ishi uchun ob'ekt qilib, Qarshi shahridagi 41-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinflarini tanladim.

Ushbu maktabda 12 ta boshlang'ich sinflari bo'lib, men o'z tajriba ishlarimni o'qituvchi Satimova Mavluda rahbarlik qilayotgan 3-A sinfini tajriba sinfi va Qodirova Saida rahbarlik qilayotgan 3-E sinfini nazorat sinfi qilib, tajriba-sinov ishlarini olib bordim. Shunday qilib 3 –A sinf tajriba guruhi o'quvchilarining soni 28 nafarni, 3-E sinf nazorat sinfi o'quvchilarining soni 26 nafarni tashkil etdi.

Tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun quyidagi vazifalarni belgilab oldim.

1.Darsni kuzatish va tahlil qilish.

2.Dars jarayonida o'quvchilarning qiziqishlariga qaratilgan usullarini kuzatish va idrok qilishlari qay darajada ekanligini aniqlash va amalda qo'llash.

3.Boshlang'ich sinf o'qish darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va o'quvchilarni qiziqishlarini oshirish, yangidan-yangi usullardan foydalanish, o'qish darsini samaradorligini oshirish.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi boshlang'ich ta'lim maktablari o'quvchilarining o'qish darslarida o'quv faoliyatini tashkil etish va takomillashtirishda o'quv-biluv topshiriqlari va ular ustida ishlash usullarini ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilarning qisman izlanishli o'quv topshiriqlari asosida nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish samaradorligini oshirishda o'qitishning turli xil noan'anaviy usullaridan foydalanishdir

Ushbu maqsadlardagi tajribani 3 bosqichda olib borishni rejalashtirdim. Har bir bosqich uchun maqsad va vazifalarni belgilab oldim. Ular quyidagilardan iborat:

1-bosqich: Kuzatuv bosqichi.

2-bosqich: Rivojlantiruvchi.

3-bosqich: Solishtirma.

Kuzatuv bosqichi. Ushbu bosqichda men shu maktabning 2 ta 3-sinflarining bir necha darslarini kuzatdim. Bunga ko'ra ushbu bosqichda sinflarda eksprement o'tkazgunga qadar bo'lgan vaqtgacha amaliyotdagi holatni aniqlash uchun maqsad va vazifalar belgilab olgan edim. Shunga ko'ra ushbu sinflarda kuzatishdan maqsad qilib, hozirgi kundagi o'qish darslarida o'quvchilarni qay darajada she'riy asarlarni o'rgatishini, ular uchun shart-sharoitlar, usul va vositalarning ana shu dars uchun qay darajada samara berayotganligini tahlil qildim. O'qish darslarini kuzatdim. O'quvchilar jamoasi bilan yaqindan tanishib olgach, o'qish darslarida she'riy asarlarni o'rgatishda interfaol metodlardan qay darajada foydalanish zarur ekanligini aniqladim. O'quvchilarning she'riy asarlar haqida nutqiy faoliyati qay darajada shakllanganligini bilish uchun turli topshiriqlarni berdim. She'riy asarlarga taalluqli test topshiriqlaridan foydalandim (Ilova-1). Dars samaradorligi faol darajada oshmadi. O'quvchilarni o'zlashtirish natijalarini umumiy holda hisoblab chiqdim. Test topshiriqlarining aksariyat qismi she'riy asarlarga qaratildi.

Har bir test savolga to'g'ri javob bersa – 5 ball, 3 yoki 4 ta savolga to'g'ri javob bersa - 4 ball, faqat 1 yoki 2 ta savolga javob bersa – 3 ball va umuman sanab bera olmasa – 0 ball qo'yildi. Shunga ko'ra 20 baldan-25 balgacha – yuqori daraja, 15 baldan - 19 balgacha – o'rta daraja va 15 baldan past bo'lsa – quyi daraja qilib belgilandi. Natijalar quyidagicha bo'ldi:

2.3. 1. jadval.

Tajriba avvalida o'quvchilar nutqining shakllanganlik darajasi

Sinflar	O'quvchilar soni	Javoblar soni		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhi	28 nafar	8	12	8
Nazorat guruhi	26 nafar	7	11	8

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, faqatgina nazariy bilimlar berish yoki nazariy bilimlarni hayot bilan bog'lamay turib o'quvchilar nutqini boyitish borasida yuqori natijalarga erishish mushkul. Natijalar va ularni sabablaridan xulosa chiqarib, 2-rivojlantiruvchi bosqichni amalga oshirdim.

So'ng II bosqichga o'tdik. Bu rivojlantiruvchi bosqichda quyidagi maqsad va vazifalarni belgilab oldim.

Maqsad va vazifalar: Bitiruv malakaviy ishi mavzusiga oid dars ishlanmalari orqali darsning samaradorligini oshirish, o'qish darslarida o'quvchilar faolligini o'stirish.

Shunday qilib, biz mavzu haqida tajriba sinfimizda ishni olib borishni boshladik. Buning uchun reja tuzib chiqildi. Shu reja asosida mukammal ish olib borishga harakat qildik. Bu bosqichda boshlang'ich sinf o'qish darslarida interfaol metodlarni joriy etish, o'quvchilarni ijodkorligi va dars samaradorligini oshirish uchun e'tibor qaratdim. Birinchi o'rinda dars samaradorligini oshirish uchun zamonaviy yangi ilg'or pedagogik tajribalar, didaktik vositalardan keng foydalanishni shakllantirish kerak. Chunki bunda butun e'tibor o'quvchining faolligini oshirishga qaratilgan bo'lib, buning uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish lozimligini inobatga olib, bu texnologiyalarning joriy etishning yo'l-yo'riqlari va qoidalari haqida suhbatlashdim. Bu bosqich uchun ham birinchi bosqich asos qilib olingan. Bu bosqich natijalariga qaraydigan bo'lsak, o'quvchilarning bilimlariga, intellektual salohiyatiga, o'zlashtirishlariga baho berishda berilgan topshiriqni qay darajada bajarganliklariga, og'zaki nutqiga, idrokiga, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini faolligini hisobga olib, o'zlashtirish darajalari aks ettirilgan. Dastlab birinchi o'tilgan darslarda o'quvchilarga yangiliklar kiritib dars o'tish ancha qiyinchilik tug'dirdi. Buning yaxshi samarali chiqishi uchun texnika vositalari, o'quv qurollari va xonaning jihozlanishi ahamiyatli hisoblanadi. Bundan tashqari interfaol usullar doimo o'quvchilarning faolliklarini, og'zaki nutq boyliklarini oshiribgina qolmay ularning erkin fikrlashga bo'lgan qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu o'zaro samaradorlikka, birdamlikka, faollikka qiziqishlarini yanada oshishiga sabab bo'ladi va darslar samaradorligi ortadi. Bu orqali har bir o'qituvchi o'z

oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini amalga oshishiga erishishi mumkin. Tadqiqotimizda samarali usullardan foydalanish natijasida o'quvchilarni she'riy asarlarni ifodali o'qishlari va mustaqil yod olishlariga erishdik. (Dars ishlanmalari ilova qilinadi. Ilova-2)

Xullas, ishimizning 3-bosqichida buni aniqlash imkoniga ega bo'lamiz.

III bosqich. Nazorat bosqichi.

Maqsad va vazifalar: Kuzatuv va shakllantiruvchi bosqichlaridagi natijalarni bir-biriga taqqoslab, ularni jadvallarda aks ettirish.

Tajriba so'nggida o'quvchilar nutqining shakllanganlik darajasi

2.3. Jadval-2

Sinflar	O'quvchilar soni	Javoblar soni		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhi	28 nafar	15	10	3
Nazorat guruhi	26 nafar	7	11	8

Bulardan ko'rinib turibdiki, qilingan tajriba natijasi oshgani isbotlandi. Demak, bevosita qiziqarli tarzda tashkil etib olib borilgan dars samarali ekan. Bu orqali o'quvchilarda bizning ishimizga bo'lgan qiziqishlarini ortishiga, ularni shu mavzu yuzasidan erkin va mustaqil fikrlashga, 3-sinf o'qish darslarida she'riy asarlarni o'rgatishda interfaol metodlardan samarali foydalanishga yo'naltirildi.

O'quvchilarni o'qish darslarida o'rganiladigan she'riy asarlar orqali og'zaki va yozma nutqi shakllantirildi, she'riy asarlarni o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanildi. So'zlarning nutqimizdagi ahamiyatini anglashlari uchun mustaqil she'r tanlanib, she'r matni ustida ishlandi va she'rdagi ayrim so'zlarning ma'nodoshlarini izohlashga erishildi.

Biz tadqiqotimiz davomida shunga amin bo'ldikki, hozirgi kunga kelib ta'lim sohasida shu davrgacha erishilgan yutuqlarni asrab-avaylagan holda o'quvchilarni erkin fikrlashini shakllantirishda ta'lim jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etishga e'tibor qaratish zarur. Bunda o'qituvchining innovatsion faoliyati

orqali ta'lim jarayonini interfaol metodlar orqali tashkil etishi yaxshi samara beradi. Ayniqsa, o'quvchilarni maqsadni anglashga, shu maqsadni ta'lim jarayonida nechog'li amalga oshganini tahlil qilishga o'rgatish, o'quvchilarni o'z-o'zini anglashga, o'zining faoliyati va o'zgarlar faoliyatiga to'g'ri baho bera bilishga o'rgatishda muhim o'rin tutadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining hozirgi darajasi o'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatishda ta'lim jarayonini texnologik asosda tashkil etishga tayyorlashda yetarli imkoniyatlarga ega emas. Ta'lim-tarbiya jarayonini interaktiv metodlar asosida tashkil etishga yetarli e'tibor qaratilmayotgani bu ishni tashkil etish jarayonini qiyinlashtiradi. Shunday ekan o'sib kelayotgan yosh avlodga she'riy asarlarni o'rgatishda faol metodlardan tizimli foydalanish ta'lim sifati kafolatidir.

X U L O S A

“Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida she‘riy asarlarni o‘rgatishda interfaol metodlardan foydalanishi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik.

Birinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashini shakllanishi yuz berayotgan voqea-hodisalarga munosabatini bildirishi, unga ongli ravishda javob bera olish kabi bilish jarayoni tafakkur vositasida amalga oshirilishi kabi masalalar o‘rganib chiqildi.

Ikkinchidan, o‘qish darsliklaridagi she‘riy asarlar keng va atroflicha o‘rganilib tahlil qilindi.

Uchinchidan, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga o‘qish darsliklarida berilgan she‘rlarni o‘qishga o‘rgatish orqali diqqatlarini jamlashga, tafakkur kabi bilish jarayonlari bilan bog‘liqligi haqidagi tushunchalar tahlil qilindi.

To‘rtinchidan, she‘riy asarlarni o‘rgatish jarayonining samaradorligi o‘quvchilarni rag‘batlantirish, ularda motivlarni shakllantirish va uni rivojlantirish bilan uzviy bog‘liqligi mashg‘ulotlar davomida o‘rganildi.

Beshinchidan, she‘riy asarlarni o‘rgatish jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishi fan asoslarini puxta, ongli o‘zlashtirish bilan birgalikda og‘zaki va yozma nutqning rivojlanishiga xizmat qilishi, bu jarayonda ta‘lim metodlaridan o‘rinli va to‘g‘ri foydalanish ta‘lim samaradorligini oshirilishiga erishildi.

Oltinchidan, boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida she‘riy asarlarni o‘rgatishda interfaol metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikni ta‘minlashi bitiruv malakaviy ishimizda o‘z aksini topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. "Barkamol avlod orzusi". - T.: "Sharq", 1999, 81 bet.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008. 176 bet.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T.: "O'zbekiston", 2011. 439 bet.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori//. T.: "Sharq", 1997. 62 bet.
5. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori//. T.: Sharq, 1997. 61 bet.
6. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. T.: 2010.144 bet
7. G'affarova T. va boshqalar. O'qish kitobi: 1-sinf uchun darslik.- Toshkent: Sharq, 2012.- 128 b.
8. G'affarova T. va boshqalar O'qish kitobi: 2-sinf uchun darslik.- T.: Sharq, 2012.- 176 b.
9. Umarova M. va boshqalar O'qish kitobi: 3-sinf uchun darslik.- T.: O'qituvchi, 2012. -224 b.
10. Matchonov S., G'ulomova X., Dolimov Z. O'qish kitobi: 4-sinfda o'qish darslari: O'qituvchi kitobi.- Toshkent: Yagiyul poligraf servise, 2011.- 240 b.
11. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi.- T.: Noshir, 2009.- 352 b.
12. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - Toshkent, 2003.- 176 b.
13. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.- Toshkent: Moliya, 2003. 172b
14. G'affarova T., Nurillayeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar.- Toshkent: Ilm Ziyos, 2004. – 80 b.
15. G'ulomov A., Qobilova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.- 160 b.
16. Boshlang'ich ta'lim jurnali. T.: 2014. № 4,6

17. Ashurova A.Yuldashev Z. Ta'lim tizimida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llash - zamon talabi. "Xalq ta'limi" jurnali. 2006. №10
18. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limida zamonaviy texnologiyalar. Qarshi "Nasaf" 2009. 163 bet.
19. O'zbek tilining izohli lug'ati. T.; "Ensiklopediya". T.:2006. 2-jild 582 bet.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz

ILOVALAR

**Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tajriba boshida berilgan test
topshiriqlari**

**1. O'zbekiston Vatanim- manim she'ridagi Vatan so'zining
ma'nodoshini toping.**

- a) diyor, o'ka
- b) falak, osmon
- v) chiroyli, go'zal

2. Tug'ildik biz orzu bo'lib,

Dilga tushgan yog'du bo'lib, - deb nomlanuvchi she'r qaysi bo'limdan

- a)Orzular qanotida
- b)Xalq og'zaki ijodi
- v)9-may xotira va qadrlash kuni

3. Yurtim ado bo'lmas armonlaring bor

Toshlarni yig'latgan dostonlaring bor – deb, boshlanuvchi she'r kimning qalamiga mansub.

- a) Shukur Sa'dullo
- b) Abdulla Oripov
- v) Muhammad Yusuf

4. Vatan so'zining ma'nodoshini tiping.

- a) ko'k, osmon, falak
- b)diyor, o'lka, yurt
- v)chiroyli, barno, go'zal

5. Tushimga kiradi Qodiriy bobom she'rining muallifi kim?

- a) Po'lat Mo'min
- b) Muhammad Yusuf
- v) Tursunboy Adashboyev

3-sinf O'qish kitobidagi "Ona allasi" mavzusi yuzasidan darsi ishlanmasi

Darsning texnologik xaritasi

<p>M A V Z U : Ona allasi.</p> <p>Mavzuga doir tayanch tushuncha va iboralar: ona, alla, orzu – niyatlar</p> <p>Soatlar soni: 45 daqiqa</p>
<p>Mavzuning qisqacha ta'rifi: Ona allasi farzandiga aytilgan orzu – umidlar qo'shig'i.</p>
<p>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:</p> <p>Metod: tushuntirish, suhbat, didaktik o'yin, "Javobim o'zim bilan", "Bu meniki", "Bo'lishi mumkin emas" o'yinlari, Klaster usuli, aqliy hujum.</p> <p>Shakl: Yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.</p> <p>Jihoz: Darslik, ko'rgazmalar, tarqatma materiallar.</p> <p>Nazorat: O'qituvchi nazorati, o'z – o'zini nazorat qilish.</p> <p>Baholash: 5 balli sistemada.</p>
<p>Darsning maqsadi va vazifalari:</p>
<p>a) Ta'limiy maqsad: Ona allasi farzandiga aytilgan orzu – umidlar qo'shig'i ekanligini o'rgatish. O'quvchilarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish.</p> <p>b) Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarni ezgu fazilatlariga yo'g'rilgan milliy ruhda tarbiyalash, o'z galar fikriga hurmat bilan qarashni o'rgatish.</p> <p>d) Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarning erkin fikrlash doirasini kengaytirish ravon so'zlash malakasini rivojlantirish.</p>
<p>Kutilayotgan natija:</p>
<p>a) o'quvchilardan kutilgan natija;</p> <p>b) o'qituvchidan kutilgan natija;</p> <p>d) mavzudan kutilgan natija;</p>

I.Tashkiliy qism.

a) salomlashish

b) davomatni aniqlash

d) o'quvchilarni darsga tayyorlash

Oltin qoidalar.

-Vaqtdan unumli foydalanish;

-Darsga faol bo'lish;

-Yangilik sari intilish;

-O'zaro hurmat;

-O'n qo'l qoidasi;

-Fikrni to'liq bayon etish;

-O'zgalar fikrini qadrlash;

-Rag'batlantirish.

- Bugun oddiy dars emas,

Balki sinov darsidir.

O'tib olsak sinovdan,

Bu hammadan yaxshidir.

Qani, ayting bolalar,

Kim navbatchi bo'ladi?

Ushbu kunning hisobin,

Menga aytib beradi.

Navbatchilar qo'l ko'taradilar:

O'qituvchi: - Marhamat.

1- o'quvchi:

- Bugun hafta kunining uchinchi bo'libdi,

Oллоh ushbu kuniga katta nazar solibdi.

Barcha yaxshi yumushlar, ezgu niyat orzular,

Ushbu kunning o'zida ijobat ham bo'libdi.

2 - o'quvchi:

- Bizlar yaxshi bolamiz,

Ochilgan gul - lolamiz.

Ota-ona izmidan,

Ustozlarning so'zidan

Bizlar aslo chiqmaymiz.

Sinfdagi barchamiz

Darsga shay gul-g'unchamiz.

II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash

O'quvchilar "Lola" she'rini ifodali o'qib beradilar.

"Javobim o'zim bilan" o'yini.

- Ota so'zidagi bosh harfni ayting.
- Sana so'zidagi ikkinchi bo'g'inni toping.
- Alloma so'zidagi birinchi bo'g'inni ayting.
- L, A harflaridan bo'g'in hosil qiling.
- "Is" so'zini teskari o'qing.


III. Yangi mavzu bayoni.

Yangi mavzu xususida qisqacha ma'lumot beriladi. O'quvchilar darsga ruhan tayyorlanadi.

Bugun "Ona allasi" rivoyati bilan tanishamiz.

O'qituvchi "Ona allasi" rivoyatini ifodali qilib o'qib beradi. O'quvchilar matn mazmunini tushunganliklarini bilish maqsadida savollar beriladi.

- Qadim zamonda kim bo'lgan ekan?
- Ularga nima qilishni buyuribdi?
- Oxiri kimni keltiribdilar?
- Onaxon nima aytishni boshlabdi?
- Podshoh kuyni eshitib nima qilibdi?
- Bu kuy unga kimni eslatibdi?




Darslik bilan ishlash.

“Bo’lishi mumkin emas” o’yini.

Aziz bolajonlar, darsligimizning 38 – betini ochib, “Ona allasi” rivoyati matniga barmog’ingizni qo’yib kuzatib boring. (O’qituvchi esa shu matn rivoyatini ifodali o’qib beradi. O’qish jarayonida noto’g’ri jumla ham o’qiydi, o’quvchilar noto’g’ri jumlaning eshitishlari bilan “Bo’lishi mumkin emas” deb birgalikda aytadilar. Shu tariqa rivoyat oxirigacha 5, 6 ta noto’g’ri jumla kiritib o’qiydi.)

O’qituvchi harflardan birini doskaga iladi. O’quvchilar avval shu tovush oxirida kelgan so’zlarni aytadilar, so’ngra daftarlariga yozadilar. Masalan, ota, ona, aka, uka, olma, arra.

Osh, bosh, tosh, qosh, Yo’ldosh, ish, qish ...



Lug’at ishi.

Kuy – ohang

Murod – maqsad

Armon – ushalmagan orzu

Dam olish daqiqasi

Daraxt o'sadi tikka,

Yoniga yozadi shoxcha.

Nafas oladi yerdan,

Nur oladi quyoshdan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:




- 1) Kuy eshitgan odamning kayfiyati qanday holatda bo'ladi?
- 2) Bolajonlar, ayting-chi, kuy sizga qanday ta'sir qildi?

V. Darsga yakun yasash va baholash:

Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi va rag'batlantiriladi.

“Kayfiyatni aniqlash” mashqi.

O'qituvchi doskaga uch xil kayfiyat aks etgan rasm iladi. O'quvchilarga xohlagan rasmni tanlab daftarlariga chizish topshiriladi. Chizib bo'lgach nega aynan shu rasmni tanlagani so'raladi. Darsga xulosa yasaladi.



VI. Uyga vazifa berish:

“Ona allasi” rivoyatini ifodali o'qib, so'zlash.